Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2026-yil 19-avgust, № 168 (9339) Chorshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

YANGI O‘ZBEKISTON TADBIRKORLARI RIVOJLANISHNING YUQORI BOSQICHIGA CHIQADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 17-18-avgust kunlari Xorazm viloyatida bo‘lib, hududda amalga oshirilayotgan islohotlar, yangi loyihalar va yaratilayotgan imkoniyatlar bilan tanishdi.





Tashrifning muhim voqealaridan biri – 18-avgust kuni Xiva shahridagi “Kongress-xoll” majmuasida tadbirkorlar bilan o‘tkazilgan ochiq muloqot bo‘ldi. Unda ilk bor tumanlardagi studiyalar orqali 25 mingga yaqin tadbirkorlar ham ishtirok etdi.

Muloqot avvalida Prezidentimiz mamlakatimiz iqtisodiy qudratini mustahkamlashga munosib hissa qo‘shayotgan 1 million 200 minglik biznes hamjamiyatini Tadbirkorlar kuni bilan tabrikladi.

Va bu muloqotning mohiyati faqat tadbirkorlarning muammolari, taklif va tashabbuslarini tinglash bilan cheklanmadi. Unda biznesni yangi, sifat jihatdan yuqori bosqichga olib chiqishning aniq mexanizmlari belgilandi. Zero, besh yil avval tadbirkorlar bilan ochiq muloqot an’anasi boshlanganidan buyon biznesga to‘siq bo‘lgan minglab masalalarga yechim topildi, 84 ta qonun, 861 ta farmon va qaror qabul qilindi. Bu davrda biznes uchun kredit portfeli qariyb uch karra oshib, 450 trillion so‘mga yetdi, tadbirkorlar 650 trillion so‘mlik soliq va bojxona imtiyozlaridan foydalandi.

Eng muhimi, bugun tadbirkorlik tafakkuri, ish ko‘lami ham o‘zgardi. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, tadbirkorlar “biznesni boshlash” zinapoyasidan “kapitalni ko‘paytirish” bosqichiga ko‘tarilmoqda.

Buni raqamlar ham tasdiqlaydi. Besh yilda korxonalarning asosiy kapitalga investitsiyasi uch karra ko‘payib, 363 trillion so‘mga yetdi. Sanoati 100 million dollardan oshgan tumanlar soni 66 tadan 116 taga ko‘paydi. Xizmatlar hajmi 1 trillion so‘mdan ortgan tumanlar esa 41 tadan 152 taga yetdi. Milliy brend yaratgan tadbirkorlar 300 tadan, mahallada boshlab, yurtimiz bo‘ylab filiallarini kengaytirgan biznes vakillari 550 tadan oshdi.

Bu – iqtisodiyotda yangi kuch, o‘zgacha tafakkur va kuchli tadbirkorlar qatlami shakllanayotganidan dalolat.

Xorazmdagi keng imkoniyatlar

Davlatimiz rahbari Xorazmda ham tadbirkorlik uchun mutlaqo keng imkoniyatlar yaratilganini ta’kidladi.

So‘nggi yillarda viloyatga 4 milliard dollar xorijiy investitsiya kiritilib, 10 mingta yangi quvvat ishga tushirildi. “Hazorasp” maxsus iqtisodiy zonasi va 31 ta sanoat zonasi tashkil etildi. Tuproqqal’a va Yangiariqda umumiy quvvati 275 megavatt bo‘lgan elektr stansiyalari barpo qilindi.

Bugun Xorazm iqtisodiyotining 72 foizini kichik biznes yaratmoqda. Eksportda uning ulushi 81 foizga yetib, viloyat respublikada birinchi o‘ringa chiqdi.

Bu natijalar shuni ko‘rsatadiki, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash – shunchaki imtiyoz berish emas. Bu – hududning iqtisodiy qiyofasini o‘zgartirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadini oshirish va mahalliy salohiyatni eksport imkoniyatiga aylantirish demak.

Biznesni boshlashdan – uni kengaytirishgacha

Prezidentimiz ochiq muloqotda Yangi O‘zbekiston tadbirkorlarini ravon rivojlanish bosqichiga olib chiqadigan tashabbuslarni ilgari surdi. Jumladan, “barqaror o‘sish trayektoriyasi”ni ta’minlash birinchi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi.

Endi tadbirkorga faqat kredit berish emas, uning g‘oyasi tug‘ilganidan tortib ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishi, biznesini kengaytirishi va katta kompaniyaga aylanishigacha bo‘lgan jarayonni qamrab oladigan yaxlit tizim yaratiladi. “Biznes start”, “Biznes lift” va “Biznes yuksalish” dasturlari shu maqsadga xizmat qiladi.

– Tadbirkorga kredit berish emas, balki uni boshidan oxirigacha qo‘llab-quvvatlaydigan, birinchi qadamidan – katta biznesga aylangunicha hamkorlik qiladigan kompleks tizim yaratamiz, – dedi Prezidentimiz.

(Davomi 3-betda).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING TADBIRKORLAR BILAN OCHIQ MULOQOT SHAKLIDA O‘TKAZILGAN UCHRASHUVDAGI NUTQI

Assalomu alaykum, qadrli vatandoshlar!

Hurmatli tadbirkorlar, biznes vakillari, muloqot ishtirokchilari!

Sizlar bilan ilm-fan, hunarmandchilik, savdo va tadbirkorlik markazlaridan biri bo‘lgan ko‘hna Xorazm zaminida uchrashib turganimdan mamnunman.

Bugungi anjumanda ilk bor tuman studiyalaridan ham 25 mingga yaqin tadbirkorlar ishtirok etmoqda.

Fursatdan foydalanib sizlarni, yurtimiz iqtisodiy qudratini mustahkamlashga faol hissa qo‘shayotgan 1 million 200 ming nafardan iborat butun O‘zbekiston biznes hamjamiyatini Tadbirkorlar kuni bilan tabriklayman.

Besh yil oldin sizlar bilan ochiq muloqot o‘tkazish bo‘yicha an’anani boshlaganimiz – biznesga to‘siq bo‘lgan minglab masalalarga yechim berdi, bu borada 84 ta qonun, 861 ta farmon va qaror qabul qildik. Nima uchun? Tadbirkorlarimizga sharoit yaratib, yangi ish o‘rinlarini ko‘paytirish, odamlarimizni uzoqqa bormasdan, mahallasining o‘zida daromadli qilish uchun.

O‘tgan davrda biznes uchun ajratilgan kredit portfeli qariyb 3 karra oshib, 450 trillion so‘mga yetdi, tadbirkorlarimiz 650 trillion so‘mlik soliq va bojxona imtiyozlaridan foydalandi. Ko‘plab biznes vakillari xorijiy banklardan o‘z loyihalariga mustaqil ravishda 1 milliard dollar jalb qildi. Bu – sizlar zabt etgan yana bir ulkan marra.

Bugun tadbirkorlarimiz “biznesni boshlash” bosqichidan “kapitalni ko‘paytirish” bosqichiga o‘tyapti. Besh yilda korxonalarimizning asosiy kapitalga investitsiyasi 3 karra ko‘paydi.

Birinchi ochiq muloqotga kirishganimizda sanoatdagi ulushi 100 million dollardan oshgan tumanlar 66 ta edi. Hozir ularning sonini 116 taga yetkazdik. IT, fintex va boshqa servis sohalari juda tez o‘sayotgani uchun xizmatlar hajmi 1 trillion so‘mlik marradan o‘tgan tumanlar 152 ta bo‘ldi. Yetakchi xalqaro marketpleyslar bilan ishlayotgan korxonalar 3,5 mingtaga yetdi. O‘z biznesini mahallada boshlagan va yurtimiz bo‘ylab o‘nlab filiallariga ega bo‘lgan tadbirkorlar 550 tadan, milliy brendini yaratganlar esa 300 dan oshdi.

So‘nggi yillarda tadbirkorlarimiz uchun mis, oltin, metall prokat, polietilen, PVX, kaolin, kaustik soda kabi xomashyolar bo‘yicha taklifni ko‘paytiryapmiz. Natijada elektrotexnika, qurilish materiallari, farmatsevtika, to‘qimachilik, mebelsozlik kabi ko‘plab sohalarda “katta sakrash” qilishga erishdik.

Elektromobil, polimer va maishiy kimyo, “yashil” energetika, zargarlik sanoati sohalari “yo‘qdan bor bo‘ldi” desam fikrimga qo‘shilasizlar. “BYD”, “ADM Jizzakh”, Sirdaryodagi “Asaka motors” kabi zamonaviy avtomobil zavodlari qurilgani – bu sohaga yangi kompetensiya va texnologiya olib kirdi. Qoraqalpog‘iston, Navoiy, Chirchiq, Jizzax va Farg‘onadagi kimyo klasterlarida yuqori qo‘shilgan qiymat beradigan 40 ta yangi quvvatni ishga tushirdik.

Shu o‘rinda islohotlarimizni qo‘llab-quvvatlab, hududlarga katta-katta sarmoya kiritayotgan xorijiy hamkorlarimizga ham rahmat aytaman.

Qadrli do‘stlar!

Xorazm viloyatiga qisqa davrda 4 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilindi, bu yerda 10 mingta yangi quvvat ishga tushirildi. “Hazorasp” maxsus iqtisodiy zonasi va 31 ta sanoat zonasini tashkil etdik.

Tuproqqal’a va Yangiariq tumanlarida jami 275 megavattli elektr stansiyalar barpo qilingani korxonalarni barqaror energiya bilan ta’minlashga xizmat qilyapti.

Alohida qayd etmoqchiman, viloyat iqtisodiyotining 72 foizini kichik biznes yaratyapti. Eksportda kichik biznesning ulushi bo‘yicha Xorazm mamlakatimizda 1-o‘ringa chiqdi. Umuman, logistika zanjiridan uzoq, tabiiy resurslari cheklangan bu diyorda so‘nggi yillar kichik va o‘rta biznesda chinakam o‘sish davri bo‘ldi.

Hududda yangi imkoniyatlar yaratish maqsadida: haftalik aviareyslar sonini 16 tadan 102 taga, temir yo‘l qatnovini 8 tadan 41 taga ko‘paytirdik; Toshkent – Xiva tezyurar poyezdi qatnovini yo‘lga qo‘ydik, 35 kilometrli yangi Urganch – Xiva zamonaviy avtomobil yo‘li ham ishga tushirilyapti; 25 gektar maydonda “Arda Xiva” turistik majmuasi bunyod etildi. Tadbirkorlarning o‘zi ham 7 ming o‘rinli 331 ta mehmonxona va mehmon uylarini barpo qildi.

Mana shular evaziga bu yil Xorazmga 3 million xorijiy sayyoh kelishi kutilmoqda.

Xivada yana bir katta majmua – ko‘plab mehmonxona, savdo va ko‘ngilochar obyektlarni o‘z ichiga olgan “Sahro yulduzi” turistik kompleksini bunyod etamiz.

Bir so‘z bilan aytganda, bugungi kunda Xorazm tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar markaziga aylanib bormoqda.

Hurmatli tadbir ishtirokchilari!

Jahondagi vaziyat qanchalik murakkab bo‘lmasin, o‘tgan yarim yilda iqtisodiyotimiz 8,5 foizga o‘sdi. Nufuzli “Fitch” va “Moody’s” xalqaro reyting agentliklari mamlakatimiz suveren kredit reytingini bir pog‘ona yaxshiladi. Jahon bankining investitsiya va ishbilarmonlik muhiti to‘g‘risidagi hisobotida O‘zbekiston yetakchi davlatlar qatoridan joy oldi.

Bu – avvalo, siz, hurmatli tadbirkorlarimiz bilan yelkama-yelka turib amalga oshirayotgan islohotlarimiz samarasi, desam, to‘g‘ri bo‘ladi.

Biz tadbirkorlar manfaatlarini ko‘zlab, bu yil kooperatsiya, davlat xaridi, standart, oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi, urbanizatsiya kabi sohalarda institutsional o‘zgarishlar qildik. Birgina natija: “Milliy sanoat zanjiri” yo‘lga qo‘yilgani uchun shu yilning o‘zida xususiy korxonalar yirik davlat kompaniyalaridan 4 trillion so‘mlik kooperatsiya buyurtmalarini olishga erishdi.

Strategik korxonalar “kelajak loyihalari” dasturi doirasida mahalliylashtirish uchun 650 dan ziyod yangi mahsulot ro‘yxatini e’lon qilgani – tadbirkorlar uchun qo‘shimcha 1 milliard dollarlik bozor yaratdi.

Soliq ma’murchiligini tadbirkorlarning o‘sishiga hamohang tarzda soddalashtirib boryapmiz. Yaqinda qo‘shilgan qiymat solig‘iga o‘tish chegarasini 1 milliard so‘mdan 5 milliard so‘mga oshirdik. Bu – 600 ming kichik biznes vakiliga katta dalda bo‘ldi.

Kafe va restoranlarga qo‘shilgan qiymat solig‘idan 100 milliard so‘m “keshbek” sifatida qaytarildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari uchun qo‘shilgan qiymat solig‘ining “nol” stavkasi belgilangani hisobiga 400 milliard so‘m fermerlarning o‘zida qoldi.

Shu yilning o‘zida: Qozog‘istonda 11 turdagi qurilish materiallari importiga qo‘yilgan cheklov bekor qilindi; Turkmaniston bilan ishlab chiqarilgan tovarlarga nisbatan o‘zaro bojsiz savdo rejimini yo‘lga qo‘ydik; Iordaniya bilan 150 turdagi, Pokiston bilan 88 turdagi, Eron va Afg‘oniston bilan 34 turdagi mahsulot bo‘yicha imtiyozli savdo bitimlari tuzildi. Mo‘g‘uliston, Birlashgan Arab Amirliklari, O‘mon, Malayziya, Singapur, Indoneziya, Misr, Hindiston bilan ham shunday kelishuvlar bo‘yicha ishlayapmiz.

Iqtisodiyotning o‘sishiga katta turtki beradigan ko‘plab megaloyihalarni amalga oshiryapmiz: Jizzaxda – atom elektr stansiyasi, Olmaliqda – to‘rtinchi misni boyitish fabrikasi, Toshkent – Samarqand, Toshkent – Andijon yo‘nalishida yangi zamonaviy avtomobil yo‘llari, Xorazmda – ekologik aviayoqilg‘i majmuasi, Surxondaryoda – 940 gektar maydonda zamonaviy issiqxona, Yuqori Chirchiqda – Yangi Toshkent aeroporti qurilmoqda.

Bu yil qiymati 27 milliard dollar bo‘lgan 105 ta yangi sanoat va infratuzilma loyihalari boshlanadi. Bundan tashqari, barcha hududlarimizda jami 3 million aholi uchun yangi massivlar barpo etyapmiz.

Bunday yirik loyihalarda o‘z mahsuloti va xizmati bilan ishtirok etmoqchi bo‘lgan tadbirkorlarimiz uchun xorijiy investorlar bilan tengma-teng sharoit yaratib beramiz.

Yaqinda transport-logistika sohasidagi tadbirkorlarga yuk mashinalarini import qilishda boj va utilizatsiya yig‘imini olib tashladik. Bularga qo‘shimcha qilib, mahalliy operatorlarga xalqaro tashuvlar uchun vagon taqdim etishda qo‘shilgan qiymat solig‘ini “nol” stavkaga tushiramiz.

Tadbirkorlarimiz asosiy hamkor davlatlarning portlaridan foydalanishi uchun sharoit yaratyapmiz. Xususan, kelgusi yili Gruziyaning Poti portida quvvati 500 ming tonna bo‘lgan logistika markazini ishga tushiramiz, Anakliya porti loyihasi bo‘yicha ham hamkorlarimiz bilan amaliy ishlarga kirishdik.

Olot, Termiz, Yangiyo‘l, Ohangaron tumanlari va Xonobod shahrida yirik transport-logistika markazlarini tashkil etamiz. Bu – tadbirkorlarimiz uchun tranzit yuklari hajmini 25 foizga oshirish, logistika eksportini 3,5 milliard dollarga yetkazishga zamin bo‘ladi.

Kelgusi yili Toshkent xalqaro moliya markazi va “Enterprise Uzbekistan” xalqaro raqamli texnologiyalar markazini ishga tushiramiz. Bu markazlar xalqaro bozorlarga jadal kirib borish, 20 – 25 milliard dollar kapital, yangi bilim va texnologiya olib kelish imkoniyatini yaratadi.

Qadrli tadbirkorlar!

Endi tadbirkorlar ko‘targan masalalar bo‘yicha yangi tashabbuslarni aytsam.

Birinchi yo‘nalish – tadbirkorlik uchun “barqaror o‘sish trayektoriyasi”ni ta’minlashdan iborat.

So‘nggi yillarda banklar kredit portfelida kichik biznesning ulushi 45 foizdan 63 foizga oshdi. Banklarni mijozbay ishlashga o‘rgatyapmiz. Birinchi yarim yillikning o‘zida kichik va o‘rta biznesga 76,5 trillion so‘m resurs ajratildi.

Ahamiyatlisi – bunday resurslardan foydalangan tadbirkorlarning aylanmasi ikki yilda 2 karra ko‘paydi. Umuman, tadbirkorning kichikdan – o‘rta biznesga, o‘rtadan – “chempion”ga aylanishi eng katta qiymat.

Yaqinda kredit xizmatlari yagona raqamli portali ishga tushdi. Bunda tadbirkor bitta ariza beradi – banklar esa mijoz uchun raqobat qiladi. Biznesni endi boshlayotganlar ushbu platforma orqali 5 milliard so‘mgacha kreditni onlayn rasmiylashtirishi mumkin bo‘ladi.

Navbatdagi vazifa – biznesning barqaror o‘sishi, kengayishi va tashqi bozorlarga chiqishi uchun mustahkam poydevor yaratish bo‘ladi. Bu borada 5 mingta korxonani tahlil qildik: ularning 40 foizi so‘nggi bir yilda o‘sish uchun investitsiya kiritmagan, 29 foizida bu rejada ham yo‘q.

(Davomi 2-betda).

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2026-yil 19-avgust

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING TADBIRKORLAR BILAN OCHIQ MULOQOT SHAKLIDA O‘TKAZILGAN UCHRASHUVDAGI NUTQI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Shu bois biznesning har bir bosqichida shunga mos qo‘llab-quvvatlash chorasi va moliyaviy mexanizmlarni taqdim etish bo‘yicha yaxlit ekotizim yaratamiz. Bunda tadbirkorlikni endi boshlayotganlarga – “biznes start” dasturi asosida loyiha va kreditga hujjat tayyorlash, hisobot yuritish bo‘yicha dastlabki ko‘nikmalar sun’iy intellekt yordamida o‘rgatiladi.

Biznesga tayyorlash uchun 100 milliard so‘m ajratamiz. Ularga hududiga mos tayyor biznes reja va 200 million so‘mgacha garovsiz kredit beriladi.

Ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ygan tadbirkorlar uchun – “biznes lift” dasturi amalga oshiriladi. Bunda tadbirkorga bozor topish, davlat xaridida qatnashish, yirik kompaniyalar bilan kooperatsiya bo‘yicha yaxlit qo‘llab-quvvatlash zanjiri yaratiladi.

Yangi o‘sish bosqichiga o‘tmoqchi bo‘lgan tadbirkorlar uchun – “biznes yuksalish” dasturini yo‘lga qo‘yamiz. Dasturda ishlab chiqarishni kengaytirish va tashqi bozorlarga chiqish uchun qo‘shimcha muqobil investitsiya mexanizmlari kengaytiriladi.

Kichik tadbirkorlar uchun eng katta masala – bu garov ta’minoti bilan bog‘liq. Shuning uchun tadbirkorlar biznesining haqiqiy bahosini chiqarib, ularga kredit berishni nazarda tutadigan “kontrkafolat” tizimini joriy qilamiz.

Endi 10 milliard so‘mgacha kreditda garovning 30 foizini – davlat, 30 foizini – Biznesni kafolatlash kompaniyasi, yana 15 foizini – banklar o‘z zimmasiga oladi. Ya’ni tadbirkor kredit olish uchun 25 foizga garov topishi yetarli bo‘ladi.

Yaqinda “virtual soliq maslahatchisi” orqali tadbirkorga xarajat va xatoni kamaytirishga xizmat qiladigan sun’iy intellekt portali ishga tushdi.

Kelgusi yildan “sun’iy intellekt yordamchilari”ni qurilish, mehnat munosabatlari, tashqi savdo va davlat xizmatlari jarayonlariga ham joriy qilamiz.

Qisqasi, tadbirkorga kredit berish emas, balki uni boshidan oxirigacha qo‘llab-quvvatlaydigan, birinchi qadamidan – katta biznesga aylangunicha hamrohlik qiladigan kompleks tizim yaratamiz.

Aziz do‘stlar!

Ikkinchi yo‘nalishimiz – hududlarda biznes imkoniyatlarini oshirish to‘g‘risida bo‘ladi.

Barchamiz bir haqiqatni yaxshi tushunamiz: iqtisodiyotni rivojlantirishning eng samarali yo‘li bu – mavjud resurslardan unumli foydalanish.

Bugun minglab gektar bo‘sh yer uchastkalari, samarasiz foydalanilayotgan davlat aktivlari bor. Ularning haqiqiy qiymati qachon namoyon bo‘ladi? Qachonki, loyihaga aylanib, iqtisodiy qiymat yaratsa, ish o‘rni va eksportga xizmat qilsa.

Shu bois davlat aktivini sotib olishda: avans miqdori 30 foizdan 15 foizga tushiriladi; olti oy davomida to‘lovlarni to‘liq amalga oshirgan tadbirkorlarga 25 foiz chegirma beriladi; jami summaning yarmini to‘laganlar qolganini 7 yilda, foizsiz, bo‘lib-bo‘lib to‘lashi mumkin bo‘ladi.

Uch oyda sotilmagan davlat mulkining boshlang‘ich narxi bosqichma-bosqich 10 foizgacha kamaytiriladi.

Bundan buyon auksion muddati 30 kundan 15 kunga, takroriy savdoda – 10 kundan 5 kunga qisqaradi.

Ochiq aytish kerak, hozir auksionda yer sotib olgan tadbirkorlar qurilishni boshlash uchun hujjat yig‘ishga 6 oydan 1 yilgacha vaqt sarflayapti. Hokimlarni o‘rgatdik, endi ular yerlarni qurilishga ruxsati, arxitektura rejalashtirish topshirig‘i va loyihasi bilan “tayyor paket” shaklida savdoga chiqarishga o‘tadi. Bunday yerlarni sotib olgan tadbirkor birdaniga qurilishni boshlashi mumkin bo‘ladi.

Yana bir yengillik – infratuzilma yig‘imi bo‘yicha avans to‘lovi 20 foizdan 5 foizga tushiriladi.

Banklarda 9 trillion so‘mlik 2,5 mingta mulk bor. Ularni chegirmali narxda, boshlang‘ich to‘lovsiz, foizsiz, bo‘lib to‘lash sharti bilan sotishga ruxsat beriladi. Ularni sotib olgan tadbirkorlar ushbu obyekt uchun bir yil yer va mulk solig‘ini to‘lamaydi.

Birinchi galda mahalliylashtirish zarur bo‘lgan 50 ta mahsulot ro‘yxatini shakllantirdik. Ularni o‘zimizda chiqarish uchun maxsus iqtisodiy zonalar bo‘yicha yondashuvlarni ham o‘zgartiramiz. Shu maqsadda Navoiy, Jizzax, Namangan, Urgut va Hazorasp maxsus iqtisodiy zonalari hududining bir qismida “Bond sanoat zonalari”ni tashkil etamiz. Bu yerda joylashadigan tadbirkorlar xomashyo va butlovchi qismlarni bond omboriga olib kirishda barcha soliq va bojxona to‘lovlaridan ozod qilinadi. Agar mahsulotning mahalliylashtirish darajasi 30 – 40 foizdan oshsa, ichki bozorga chiqarishda ham imtiyozli shartlar qo‘llaniladi.

Bunday sanoat zonalari boshqaruvi tadbirkorga ko‘mak beradigan servis tuzilmaga aylanadi. Zamonaviy “R&D” markazlari, laboratoriya, muhandislik va texnologik xizmatlari yagona zanjir asosida amalga oshiriladi. Tadbirkorlarga tayyor binolarni infratuzilmasi bilan taqdim qilishga 50 million dollar beramiz.

Yana bir muhim yangilikni e’lon qilmoqchiman.

Ko‘p tadbirkorlar elektr energiyasi va gaz uchun 100 foiz oldindan to‘lov qilayotgani hisobiga aylanma mablag‘dan qiynalayotganini aytyapti.

Yangi energetika vaziri Sherzod Xodjayevga topshiriq berdim.

Endi ASKUE va ASKUG tizimiga ulangan, to‘lov intizomini buzmagan korxonalarga oy davomida mablag‘ kiritish sharti bilan avans miqdori 15 foiz bo‘ladi. Bu sizlarga ma’qulmi?

Umuman, energetika bo‘yicha boshqaruv tizimini tubdan o‘zgartiryapmiz. Barcha tumanlarda tadbirkorlarning hozirgi ehtiyoji va ertangi rejasiga qarab ishlaydigan yangi tizim bo‘lyapti.

Kelgusi yildan qurilish sohasida pudratchi va loyihachilarning o‘sishini rag‘batlantiradigan yangicha yondashuvlarni joriy qilamiz. Endi qurilish qaysi hududda bo‘lishidan qat’i nazar, har bir ishchi-soat uchun eng kam ish haqining 5 foizi miqdorida mablag‘ rejalashtiriladi.

Shuningdek, davlat obyektlari smetasida pudrat korxonalari uchun 7 foiz foyda ko‘zda tutiladi. Qurilishning murakkabligiga qarab loyihalash ishlari uchun obyekt qiymatining 4 foizidan 7 foizigacha mablag‘ ajratamiz.

Muhtaram yurtdoshlar!

Uchinchi yo‘nalishimizda – “sun’iy intellekt – boshqaruv samaradorligi – yangi investitsiyalar” ekotizimini yaratish haqida gaplashamiz.

Bugun qaysi tadbirkor qo‘shilgan qiymatni ko‘paytirsa, sun’iy intellekt yordamida unumdorlikni oshirsa, tannarx bo‘yicha izlansa, ertangi bozor shuniki.

Tahlil qildik, ushbu yondashuvlar asosida ishlagan tadbirkorlarning: 54 foizida mahsulotiga talab keskin oshgan; 25 foizida tannarx sezilarli kamaygan; 40 foizida daromadi ko‘paygani uchun ishchilarning oyligi 10 foizdan yuqori o‘sgan. Shu bois korxonalarda unumdorlikni oshirishga qaratilgan yangi mexanizmlarni joriy qilamiz.

Yaqinda Raqamli hukumat markazida birinchi superkompyuter klasteri faoliyatini yo‘lga qo‘ydik. Kelgusi yil klaster quvvatini 3 karra oshiramiz. Bu – sun’iy intellektni joriy qilish istagida bo‘lgan tadbirkorlarga ulkan imkoniyatlar ochadi.

Endi “10 ming korxona uchun – sun’iy intellekt hamkor” dasturini boshlaymiz. Ularga: sun’iy intellekt joriy qilish xarajatining 50 foizini kompensatsiya qilamiz; yangi mahsulotlar sun’iy intellekt modelini yaratish uchun superkompyuter imkoniyatlaridan bepul foydalanishi mumkin bo‘ladi.

Bundan tashqari, korxonalarning yangi mahsulot yaratish, ilg‘or texnologiyalarni joriy qilish bo‘yicha ilmiy tadqiqot xarajatlari byudjetdan qoplanadi.

Shu bilan birga, yurtimizdagi barcha tadbirkorlar foydalanishi uchun tayyor sun’iy intellekt dasturlarini ochiq platformaga joylashtiramiz.

Dasturni moliyalashtirish uchun dastlabki bosqichda 100 million dollar ajratamiz.

To‘qimachilikda avtomatlashgan boshqaruv tizimlarini joriy qilish xarajatining yarmini qoplab beryapmiz. Endi elektrotexnika, qurilish materiallari va oziq-ovqat sanoati korxonalariga ham bunday xarajatlarning 50 foizini kompensatsiya qilamiz.

Joriy yilda 13 ta strategik kompaniya aktiviga ega bo‘lgan Milliy investitsiya jamg‘armasining 30 foiz ulushini ilk bor Toshkent va London fond birjasiga chiqardik. Bu ijobiy tajriba, hech shubhasiz, xususiy sektordagi yirik korxonalarimiz uchun ham tashqi kapital bozorlariga yo‘l ochib berdi.

Endi mahalliy korxonalarimiz kapital bozoriga jadal kirib borishi uchun nufuzli investitsiya banklari bilan akseleratsiya dasturini yo‘lga qo‘yamiz. Har yili yillik daromadi 1 trillion so‘mdan yuqori bo‘lgan 50 ta korxona tanlab olinadi. Akseleratsiya dasturi doirasida bu korxonalarni IPOga tayyorlash, hisobotlarini xalqaro standartlarga moslashtirish xarajatlarining yarmi qoplab beriladi. Bu – xususiy korxonalar uchun chetdan yiliga kamida 1 milliard dollar jalb qilish imkonini beradi.

Aziz tadbirkorlar!

Bugun yurtimizning qaysi hududiga bormang, barchasida zamonaviy texnologiyalar asosida ishlaydigan yangi-yangi korxonalar soni ko‘paymoqda.

Har yil 50 milliard dollarlik yangi yuqori texnologik investitsiya loyihalarini amalga oshiryapmiz. Lekin bu loyihalarning nechtasida ta’lim, o‘qitish komponenti bor?

Bir narsani bilinglar: har bir loyihaning samarasi – faqat texnologiyaga emas, balki ularni ishlata oladigan malakali kadrlarga bog‘liq.

Kasbiy ta’limda samara bo‘lishi uchun birinchi navbatda yoshlarda kasbga qiziqish uyg‘onishi kerak.

Kecha Urganch shahridagi Kasbiy mahorat texnikumi va Kasblar shaharchasi faoliyati bilan tanishdim. Bu yerda Germaniya va Xitoy tajribasi asosida maktab o‘quvchilari, iqtidoriga qarab, “yashil” energetika, qurilish, hamshiralik, agronomlik, elektrotexnika kabi talab yuqori bo‘lgan 10 turdagi kasblarga yo‘naltirilyapti.

Xorazmda boshlangan ushbu yangi tajribani mamlakatimizning barcha hududlarida yo‘lga qo‘yamiz. Tuman hokimlari bir hafta ichida Urganchga kelib, buni ko‘zi bilan ko‘rib ketsin.

Saudiya Arabistonining “ACWA Pover” kompaniyasi 3 ta viloyatda texnikumlarni jihozlab, yiliga yuzlab yoshlarni zamonaviy kasblarga o‘rgatyapti.

Endi savol: chet eldan investor kelib, o‘zi uchun kadr tayyorlashni yo‘lga qo‘yadi-yu, nima uchun o‘zimiznikilar buni qila olmaydi?

“O‘zim texnikum qilaman yoki davlat texnikumini olib, xalqaro standartga mos kadr tayyorlayman” degan tadbirkorga “yuk tushirmaydigan” qilib, xarajatini solig‘idan chegirib beramiz. Yer sotib olgan bo‘lsa, yer narxidan kamaytiramiz. Buni har bir viloyat, har bir tuman hokimi tadbirkorlari, korxonalari bilan qilishi kerak.

Bir oyda qaror chiqadi. Qarorning ilovasi bilan bu ishga hissa qo‘shadigan korxona va investorlar ro‘yxatini ham tasdiqlab, so‘ragan imtiyozini beramiz.

Rektorlar ham yozib olsin: oliygoh binosida kunning birinchi yarmida talabalarni o‘qitsa, tushdan keyin yoshlarni kasbga o‘rgatadi.

Ishni shunday tashkil qilsak, 1 million yoshlarni zamonaviy kasblar bilan qamrab olib, o‘zimizda yuqori daromadli ishlarga joylashtiramiz.

Hurmatli anjuman qatnashchilari!

To‘rtinchi yo‘nalishda – eksport salohiyatini oshirish, milliy brendlarni tashqi bozorlarga olib chiqish masalasini gaplashamiz.

Hozir tashqi bozorlarda har bir dollarlik eksport uchun kuchli raqobat ketyapti. Yaqinda eksportchilar faoliyatini o‘rgandik. Ularning: 40 foizi xorijiy mijoz topishga qiynalayotganini, 36 foizi mahsulotini chet eldagi standart va sertifikatsiya talablariga moslashtira olmayotgani; 37 foizi eksport uchun qulay moliyaviy instrumentlar yetarli emasligini; 33 foizi bozor haqida ma’lumot, marketing va “brend” bo‘yicha ko‘nikmaga ega emasligini bildirgan.

Shu bois korxonalarimizga tashqi bozorga chiqishdagi barcha jarayonlarda kompleks xizmat ko‘rsatadigan “eksport navigator” tizimini yo‘lga qo‘yamiz.

Bosh vazir o‘rinbosari J. Xodjayev, investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri L. Qudratov, tashqi ishlar vaziri B. Saidov, elchilar chet eldagi talabni o‘rganib, tashqi bozorda mustahkam o‘rin egallasa bo‘ladigan 100 ta mahsulot ro‘yxatini tuzadi. Bunda mahsulot kesimida 3 ta yo‘nalish, ya’ni – tashqi bozordagi raqobatchilar, tarif tizimi, logistika bo‘yicha yechimlar ishlab chiqiladi.

Shu asosda: Sanoat kooperatsiyasi agentligi (B. Haydarov) 2 mingta korxonada ishlab chiqarishni tashqi bozor va xaridor segmentiga moslashtirish dasturini yaratadi; Texnik jihatdan tartibga solish agentligi (A. Jumanazarov) ushbu 100 ta mahsulot bo‘yicha tadbirkorlarga har bir bozor kesimida standart va sertifikatini shakllantirib beradi; banklar eksport uchun tadbirkorlarga qulay bo‘lgan yangi moliyaviy mexanizmlarni yo‘lga qo‘yadi; Transport vazirligi (I. Mahkamov) eng optimal logistika marshrutlarini ishlab chiqadi.

Eksportni rag‘batlantirish, xorijiy brendlarni olib kelish, milliy brendlarni rivojlantirish bo‘yicha ham qo‘shimcha mexanizmlarni joriy etamiz.

Bu borada tadbirkorlarga: xorijiy “brendmeyker” olib kelish xarajatining yarmi to‘lab beriladi; tashqi bozorlarda milliy brendlarni targ‘ib qilish, ularni xalqaro talablarga moslashtirishga 50 ming dollargacha subsidiya beriladi; marketpleyslar orqali mahsulotlarni omborga joylashtirish va sotish bilan bog‘liq xarajatlarning yarmi kompensatsiya qilinadi; xalqaro tenderlarda ishtirok etishga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadigan konsalting kompaniyalar xarajatining 80 foizini qoplab beramiz.

Barcha eksportchilarga teng sharoit yaratib, ularni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yagona tizim yaratamiz. Bunga 1 milliard dollar yo‘naltiramiz.

Hurmatli tadbirkorlar!

Bugungi kunda dunyoda bozor uchun kurash kun sayin kuchayib boryapti, manaman degan davlatlar ham o‘z bozorini himoya qilishga qattiq kirishyapti.

Bunday vaziyatda xorijga chiqqan tadbirkor hech qachon o‘zini yolg‘iz his qilmasligi kerak. Elchilar eshitib olsin. Endi qayerda imkoniyat, qayerda yangi bozor bo‘lsa, elchi birinchi bo‘lib tadbirkorlarni “qo‘lidan ushlab” olib boradi. Lo‘nda qilib aytganda, diplomatlar “tadbirkorlarning elchisi”ga aylanib, asosiy vaqtini shunga bag‘ishlaydi.

Hozirgi kunda eksportimizning 60 foizi 20 ta davlatga to‘g‘ri kelyapti. Muhimi, tadbirkorlarimiz bu davlatlardagi raqobatga, talabga, standartga moslashdi. Bu bozorlarda eksportni 2-3 karra oshirish imkoniyati bormi? Bor! Buni kim bilan qilamiz? Albatta, o‘sha bozorlarning baland-pastini yaxshi biladigan tadbirkorlarimiz bilan birga qilamiz.

Shu bois katta eksport bozorimiz bo‘lgan 20 ta va istiqboli yuqori yana 5 ta davlatda faol ishlayotgan tadbirkorlarga “eksport elchilari” maqomini beramiz. Ularni o‘sha davlatga eng ko‘p eksport qilayotgan tadbirkorlarning o‘zi saylaydi.

Eksport elchilari qaysi savdo tarmog‘i bilan ishlash, sertifikat olish, marketing masalasida tadbirkorlarimizga ko‘makchi bo‘ladi. Ularga o‘zlari faoliyat yuritayotgan davlatga borish-kelish va yashash xarajatini qoplab beramiz.

Eksportda muddati o‘tgan qarzdorlik uchun jarimalarga “moratoriy” yil yakunida tugaydi. Dunyodagi notinch vaziyatni ko‘rib turibsiz. Bunday sharoitda tadbirkor tashqi muammolar bilan kurashish bilan birga, jarima to‘lashga majbur. Shuning uchun ko‘p o‘ylab, bir qarorga keldim. Agar eksportchilar yil yakunigacha qarzni qoplash uchun bankdagi hisob raqamiga valyuta qo‘ysa, bu – eksport tushumi sifatida qabul qilinadi. Bu orqali 380 ming ishchisi bo‘lgan 3 mingdan ortiq eksportchining muammosi uzil-kesil hal bo‘ladi.

Endi tovar eksporti uchun to‘lov tushmagan bo‘lsa ham eksport qilishga cheklovni olib tashlaymiz. Invoys orqali eksport qilishda oldindan 50 foiz tushumni ta’minlash talabi ham bekor bo‘ladi. Savdo uyi va distribyutorlar orqali qilingan eksport bo‘yicha valyuta tushumini ta’minlash muddati 180 kundan 365 kunga uzaytiriladi. Endi eksportchi foydasiga sud qarori chiqqan shartnomalar bo‘yicha jarima qo‘llash to‘xtatiladi.

Hurmatli tadbirkorlar!

Beshinchi yo‘nalishda – biznesga ma’muriy bosimni keskin kamaytirish bo‘yicha gaplashamiz.

Biznesga soliq yukini izchil kamaytirib kelyapmiz. O‘tgan o‘n yilda yashirin iqtisodiyot 50 foizdan 26 foizgacha kamaydi. Lekin bu – hali ham ko‘p. Doim aytaman, iqtisodiyotni “soya”dan chiqarish – tekshirish bilan emas, aksincha, tadbirkorga yo‘l ko‘rsatib, to‘g‘ri ishlashga o‘rgatish orqali bo‘lishi kerak.

Masalan, tahlil qilingan 5 ming tadbirkorning yarmidan ko‘pida bir yil ichida 2-3-marta, yana 21 foizida 4-martadan soliq tekshiruvi o‘tkazilgan. Bundan tashqari, yong‘in xavfsizligi, qurilish, sanitariya, karantin, energiya inspeksiyalari tomonidan o‘tkaziladigan takroriy tekshiruvlar ko‘p.

Bir narsani tushunish kerak: xotirjamlik bo‘lmagan joyda erkinlik ham, rivojlanish va yangilikka intilish ham bo‘lmaydi. Shu bois kichik biznes faoliyatida inson sog‘ligi va boshqa tadbirkorlar manfaatiga zarar yetkazish bilan bog‘liq bo‘lmagan har qanday tekshirish uchun **uch yil muddatga moratoriy** e’lon qilamiz.

Yana bir muhim yangilik: endi o‘rta va yirik tadbirkorlar korxonasini ixtiyoriy profilaktik auditdan o‘tkazsa, xulosani soliq organi tan oladi. Muhimi, aniqlangan kamchilikni bartaraf qilgan tadbirkor jarimaga tortilmaydi va ushbu davr uchun soliq organi tekshiruv o‘tkazmaydi.

Yong‘in xavfsizligi, qurilish, sanitariya, karantin idoralari rahbarlari ham buni o‘z tizimida tezda yo‘lga qo‘ysin.

Shu bilan birga, yil davomida o‘tkaziladigan har qanday takroriy tekshiruv faqat Biznes-ombudsman ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Bugun biznesni rivojlantirish uchun faqat jozibador soliq tizimining o‘zi yetarli emas. Hozir 51 ta idora moliyaviy jarima qo‘llash vakolatiga ega. Jarimaning bir qismi idorasiga tushgani uchun ayrim rahbarlarda “tekshirsa – qo‘rqadi, qo‘rqsa – to‘laydi” degan yondashuv yo‘q emas.

Nazorat idoralarini ogohlantiraman: jarima mablag‘ yig‘ish uchun emas, sohada tartib-intizom va profilaktika uchun xizmat qilishi kerak. Shu bois, barcha turdagi jarimalar miqdorini o‘rtacha 2 barobarga kamaytiramiz.

Tadbirkorlar mahsulot yetkazib berganidan keyin davlat korxonalari tomonidan shartnoma bo‘yicha to‘lovni kechiktirish holatlari ham uchrayapti. Oqibatda tadbirkorlar savdoda ishtirok etish uchun to‘lagan garov pulini vaqtida ololmayapti.

Endi qabul qilingan tovar bo‘yicha garov puli avtomatik qaytadigan tizim bo‘ladi.

Kelgusi yildan tadbirkor va davlat o‘rtasidagi nizolarni ko‘rishda “Tadbirkorning haqlilik prezumpsiyasi” tamoyilini joriy qilamiz. Endi tadbirkorning aybdorligi sudda isbotlanmaguncha, u aybsiz deb hisoblanadi, jarima va boshqa ta’sir choralari qo‘llanilmaydi.

Shu bilan birga, tadbirkorlarga iqtisodiy va moliyaviy jarimalar qo‘llashda “Birinchi xato uchun – ogohlantirish” qoidasini yo‘lga qo‘yamiz. Birinchi marta qoida buzgan, lekin fuqarolar hayoti va sog‘ligi, o‘zgalar mulkiga zarar yetkazmagan hollarda tadbirkorlarga kamchilikni bartaraf etish uchun o‘n kun muddat beriladi.

Sudda tadbirkor foydasiga qaror chiqarilgan ishlar yuzasidan davlat idoralarida shikoyat qilishga yetarli asos bo‘lmasa-da, ishni oxirgi instansiyagacha olib borish holatlari ko‘p uchrayapti.

Nega desangiz, davlat idoralari sudga ariza kiritishda boj to‘lashdan ozod qilingan. Endi nazorat organlari birinchi instansiyadan keyingi har bir bosqichda sudga murojaat qilish uchun davlat bojini to‘lashi majburiy bo‘ladi.

Savdo-sanoat palatasi huzurida Soliqqa oid nizolar bo‘yicha ekspert kengashi faoliyatini yo‘lga qo‘yganimiz o‘zining ijobiy natijasini beryapti. Endi bu Kengashga bojxona, qurilish, sanitariya, karantin va veterinariya sohalaridagi nizolarni ko‘rib chiqish vakolatini ham beramiz.

Davlat xizmatlarini ko‘rsatishda muddat buzilishi bilan bog‘liq e’tirozlar ko‘p. Shu bois tadbirkorlikka oid davlat xizmatining 50 foizi “sukut – rozilik” tamoyiliga o‘tkaziladi. Ya’ni agar ariza belgilangan vaqtda ko‘rib chiqilmasa, ushbu murojaat avtomatik ravishda tadbirkor foydasiga hal qilingan hisoblanadi.

Bundan tashqari, litsenziya bo‘yicha ariza rad qilingan har bir holatni Biznes-ombudsman o‘rganadi. Asossiz rad qilish uchun javobgarlikni kuchaytiramiz.

Yaqinda 30 dan ziyod faoliyat turi bo‘yicha litsenziya va ruxsatnomani bekor qilamiz, yana 35 tasini berish muddati 2-3 karra qisqaradi, 10 tasini xabardor qilish tartibiga o‘tkazamiz. Masalan, oziq-ovqat eksportida talab etiladigan 3 ta ruxsatnoma (veterinariya, sanitariya va fitosanitariya) o‘rniga “Yagona salomatlik sertifikati” beriladi.

Endi yangi litsenziya va ruxsatnoma joriy qilishdan olti oy oldin 3 ta hududda eksperimentdan o‘tkaziladi.

Yana bir masala – biznes vakillarida ijro hujjatlari bo‘yicha, ayniqsa, tadbirkor mulkiga taqiq qo‘yish bilan bog‘liq e’tirozlar ko‘p. Tez orada ijro bo‘yicha alohida uchrashuv o‘tkazib, barcha masalalarni hal qilib beramiz.

Qadrli yurtdoshlar!

Yil boshidan buyon yurtimizga 8 million nafar xorijiy sayyoh tashrif buyurdi, ularning O‘zbekistonda bo‘lish muddati 8 kungacha uzaydi.

Xorazmliklarning o‘zi aytsin: turizmdagi islohotlarimiz viloyat aholisining turmush sharoitida, daromadida sezilyaptimi?

Bu ishlarga yanada turtki berish uchun yangi imkoniyatlarni aytmoqchiman.

Mehmonxona qurish, rekonstruksiya qilish va jihozlashga 50 million dollar resurs ajratamiz. Bunda tadbirkorlarga o‘n yil muddatga milliy valyutada 16 foizli kredit beriladi. Shuningdek, uch, to‘rt va besh yulduzli mehmonxona qurishga subsidiyalar berish muddatini yana ikki yilga uzaytirib beramiz.

Endi subsidiya olish uchun mehmonxona toifasini tasdiqlashda xorijiy kompaniyalar xulosasini talab etish amaliyotini bekor qilamiz. Mehmonxonalar uchun yer va mulk solig‘ini 10 barobar kam stavkada to‘lash bo‘yicha imtiyozni 2030-yilgacha uzaytiramiz. Joylashtiruv o‘rinlari 50 tadan ko‘p bo‘lgan mehmonxonalarga naqd valyutani qabul qiladigan bankomatlarni banklarning o‘zi o‘rnatib beradi.

Turoperatorlar xorijiy turistlarga ko‘rsatgan xizmatni eksportga tenglashtirib, ularni qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilamiz. Turistik avtobus, elektrobus, mikroavtobuslar olib kelishda bojxona imtiyozini yana bir yilga uzaytiramiz. Bunday transportlar uchun utilizatsiya yig‘imi ham undirilmaydi.

Hurmatli tadbirkorlar!

Bugun sizlar bilan iqtisodiyotimizni yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha oldimizda turgan ustuvor vazifalar haqida gaplashib oldik.

Bir narsani bilinglar: biz – 40 millionli xalqmiz. Odamlarimiz hayotini yanada yaxshilash uchun hozirgidan kam bo‘lmagan yuqori iqtisodiy o‘sishni saqlab qolishimiz zarur. Bu yil yalpi ichki mahsulotni – 180 milliard dollardan, eksportni – 40 milliard dollardan oshirish bo‘yicha juda katta marra olyapmiz.

Shu maqsadda tadbirkorlarimiz yuqori daromadli ish o‘rinlarini ko‘paytirishi, qo‘shilgan qiymatni oshirishi, tashqi bozorlarga jadal kirib borishi uchun barcha sharoitlarni yaratishdan to‘xtamaymiz.

O‘z navbatida, tadbirkorlarimiz ham yangi o‘sish nuqtalarini topib, yangi g‘oya va texnologiya, yangi mahsulot va bozorlarga intilishi kerak.

Buning uchun: toshkentlik tadbirkorlar, korxona egalari “biz faqat tashqi bozor, eksportga ishlaymiz” degan tashabbus atrofida birlashib, amaliy ishlarga kirishsa, bilasizlarmi qanday katta o‘zgarish bo‘ladi!

Andijon, Farg‘ona, namanganlik ishbilarmonlar – to‘qimachilik va mashinasozlikda ichki bozor yoki xomashyo eksporti bilan cheklanmasdan, to‘liq zanjirli ishlab chiqarishni kengaytirsa, qanchadan-qancha qo‘shilgan qiymat yaratiladi. Buni ular uddalashiga ishonaman!

Samarqand, Buxoro, Xorazmda – turizm, kreativ industriyani yangi imkoniyat maydoniga aylantirish, agrosanoatda xalqaro brendlarni kashf qilish uchun ishga solinmagan katta salohiyat mavjud. Buni to‘liq ishlatish kerak!

Navoiy va Toshkent viloyatida – tog‘-kon, metallurgiya va ilmiy kimyoda korxonalar birlashsin, olimlar va ishlab chiqaruvchilar qo‘lni qo‘lga berib ishlasin! Shunda bu hududlar butun sanoatimiz uchun ulkan xomashyo bazasiga aylanadi.

Qashqadaryo, Surxondaryo agrosanoat, neft-gaz kimyosida oddiy xomashyo sotishdan to‘xtab, tayyor mahsulotning eng uzun va daromadli zanjirini yaratsa – iqtisodiyotda qanday buyuk o‘sish bo‘ladi!

Qoraqalpog‘istonliklar “yashil” energetika, IT va sun’iy intellektni iqtisodiy drayverga aylantirsa – yangi asr texnologiyalari mana shu yerda barpo etiladi. Minglab yoshlarimiz hayotiga, tadbirkorlarimiz faoliyatiga yangi mazmun kiradi.

Jizzax va Sirdaryoda avtomobilsozlik, elektrotexnika, qurilish materiallari sohasida eng salohiyatli klaster tizimini yaratyapmiz. Tadbirkorlarimiz dunyoda raqobatlasha oladigan eng arzon tannarx va eng ilg‘or texnologiyalarga ega bo‘lishi shart.

Bu – sanoatdagi ustunlik bo‘ladi.

Ana shunda odamlarimizning chetga chiqib ishlashiga zarurat qolmaydi, ular yurtimizning o‘zida yuqori daromadli bo‘ladi, Yangi O‘zbekiston tadbirkorlari yangi rivojlanish bosqichiga chiqadi.

Ishonchim komil, bunga kuchimiz ham, imkoniyatimiz ham, salohiyatimiz ham yetadi.

Aziz do‘stlar, muhtaram tadbirkorlar!

Bugun sizlar bilan muloqot qilib, bir narsaga amin bo‘ldim.

Mamlakatimizda zamonaviy fikrlaydigan, o‘z biznesini kengaytirish uchun yangilikka intilayotgan yangi avlod tadbirkorlari shakllanmoqda.

Bu esa yurtimizning ertangi kuni va taraqqiyoti uchun juda katta kuch va ishonchdir.

Hech qachon oldinga intilishdan, o‘sishdan, rivojlanishdan, yangilik qilishdan to‘xtamang!

Sizlarning ortingizda doimo qo‘llab-quvvatlaydigan kuchli davlat, huquq va manfaatingizni himoya qiladigan qonun, tashabbus va maqsadlaringizni ro‘yobga chiqarishda yelkadosh bo‘lgan Prezident bor.

Sizlarni Tadbirkorlar kuni bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, ishlaringizda rivoj, oilaviy xotirjamlik tilayman.

Hamisha omon bo‘linglar!

YANGI O‘ZBEKISTON TADBIRKORLARI RIVOJLANISHNING YUQORI BOSQICHIGA CHIQADI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Kichik biznes uchun eng dolzarb masalalardan biri bo‘lgan garov ta’minotiga ham yangi yondashuv joriy etiladi. 10 milliard so‘mgacha kreditlarda “kontrkafolat” tizimi orqali garovning asosiy qismini davlat, Biznesni kafolatlash kompaniyasi va banklar o‘z zimmasiga oladi. Tadbirkorga esa 25 foiz garov topish kifoya bo‘ladi.

Bu mexanizmning ahamiyati shundaki, endi yaxshi g‘oyaning taqdiri faqat tadbirkorning qo‘lidagi garovga bog‘liq bo‘lib qolmaydi.

Bo‘sh yer va aktivlar – qiymat yaratishga

Ikkinchi muhim yo‘nalish hududlarda biznes imkoniyatlarini kengaytirishga qaratildi. Davlatimiz rahbari bo‘sh yerlar va samarasiz foydalanilayotgan davlat aktivlari o‘z-o‘zicha iqtisodiy qiymat yaratmasligini, ular loyihaga aylanib, ish o‘rni va eksportga xizmat qilgandagina haqiqiy samara berishini ta’kidladi.

Shu bois davlat aktivlarini sotib olishda avans to‘lovi 30 foizdan 15 foizga tushiriladi, olti oyda to‘liq hisob-kitob qilgan tadbirkorga 25 foiz chegirma beriladi. Banklar balansidagi 9 trillion so‘mlik 2,5 mingta mulk ham tadbirkorlarga qulay shartlarda taklif etiladi.

Yer bilan bog‘liq jarayonlarda ham ortiqcha byurokratiya qisqaradi. Endi tadbirkor auksionda yerni olganidan keyin oylab hujjat yig‘ib yurmaydi. Hokimliklar yer uchastkalarini qurilish ruxsati, arxitektura-rejalashtirish topshirig‘i va loyihasi bilan “tayyor paket” sifatida savdoga chiqaradi.

Ya’ni davlatning vazifasi tadbirkorga “yer berish” bilan emas, uning shu yerda ishni tez boshlashi uchun sharoit yaratish bilan o‘lchanadi.

Sun’iy intellekt – samaradorlik omili

Uchinchi yo‘nalish – “sun’iy intellekt – boshqaruv samaradorligi – yangi investitsiyalar” ekotizimini yaratish.

Bugun raqobatda kim ko‘proq ishlab chiqargani emas, kim kamroq xarajat bilan ko‘proq qo‘shilgan qiymat yarata olgani hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

– Bugun qaysi tadbirkor qo‘shilgan qiymatni ko‘paytirsa, sun’iy intellekt yordamida unumdorlikni oshirsa, tannarx bo‘yicha izlansa, ertangi bozor shuniki, – dedi Prezidentimiz.

Shu maqsadda “10 ming korxona uchun – sun’iy intellekt hamkor” dasturi boshlanadi. Korxonalarning sun’iy intellektni joriy etish xarajatining 50 foizi qoplab beriladi. Yangi mahsulot yaratishda superkompyuterdan bepul foydalanish va ilmiy tadqiqot xarajatlarini byudjetdan qoplash imkoniyati yaratiladi.

Bu, aslida, raqamlashtirishdan ham kengroq ma’no kasb etadi. Chunki sun’iy intellekt endilikda faqat texnologik kompaniyalar emas, oddiy ishlab chiqarish korxonalarining ham raqobatbardoshligini belgilaydi.

Shuningdek, har yili daromadi 1 trillion so‘mdan yuqori bo‘lgan 50 ta korxonani IPOga tayyorlash uchun akseleratsiya dasturi yo‘lga qo‘yiladi. Bu xususiy biznesning tashqi kapital bozorlariga chiqishi uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Kadr – investitsiyaning eng muhim qismi

Muloqotda yuqori texnologik loyihalarda kadr tayyorlash komponenti bo‘lishi zarurligiga urg‘u qaratildi.

– Har bir loyihaning samarasi – faqat texnologiyaga emas, balki ularni ishlata oladigan malakali kadrlarga bog‘liq, – dedi davlatimiz rahbari.

Urganchda Germaniya va Xitoy tajribasi asosida yoshlarni “yashil” energetika, qurilish, hamshiralik, agronomlik, elektrotexnika kabi zamonaviy kasblarga yo‘naltirish boshlangan. Bu tajriba butun respublikada tatbiq etiladi.

Shu orqali 1 million yoshni zamonaviy kasblarga o‘rgatib, ularni yuqori daromadli ish o‘rinlariga joylashtirish maqsad qilinmoqda.

Demak, yangi iqtisodiyotda eng katta investitsiya – bino yoki uskuna emas, uni boshqara oladigan inson kapitali bo‘ladi.

Milliy brendlar – jahon bozorida

To‘rtinchi yo‘nalish eksport salohiyatini oshirish va milliy brendlarni tashqi bozorlarga olib chiqishga qaratildi.

Bugun tashqi bozorda raqobat tobora kuchayib bormoqda. Eksportchilarning salmoqli qismi xorijlik mijoz topish, standart va sertifikat talablariga moslashish, moliyaviy instrumentlar, marketing va brend masalalarida qiyinchilikka duch kelmoqda.

Shu bois tashqi bozorga chiqishning barcha bosqichlarini qamrab oladigan “eksport navigator” tizimi joriy etiladi. Tashqi bozorlarda talab yuqori bo‘lgan 100 ta mahsulot bo‘yicha raqobatchilar, tariflar va logistika yechimlari ishlab chiqiladi.

Tadbirkorlarga xorijiy brendmeyker jalb qilish xarajatining yarmi, milliy brendni targ‘ib qilish va xalqaro talablarga moslashtirish xarajatlari uchun subsidiya beriladi. Marketpleyslar va xalqaro tenderlarda ishtirok etish xarajatlarining bir qismi kompensatsiya qilinadi.

E’tiborlisi, O‘zbekistonning xorijdagi elchilariga ham tadbirkorlarni yangi bozorlarga olib chiqishda faol ko‘maklashish vazifasi qo‘yildi. Eksportning asosiy qismi to‘g‘ri keladigan davlatlarda “eksport elchilari” instituti tashkil etiladi.

Ya’ni “eksport qil” degan talab o‘rniga “eksport qilishing uchun bozorni birga topamiz” degan yondashuv shakllanmoqda.

Ishonch o‘sishga kuch va ruh beradi

Beshinchi yo‘nalish – biznesga ma’muriy bosimni keskin kamaytirish.

So‘nggi uch yilda soliq yuki 13,4 foizdan 12 foizga, “yashirin iqtisodiyot” ulushi esa o‘n yilda 50 foizdan 26 foizga tushdi.

Endi kichik biznesda inson salomatligi va boshqa tadbirkorlar manfaatiga zarar yetkazish bilan bog‘liq bo‘lmagan tekshirishlarga uch yillik moratoriy joriy etiladi. O‘rta va yirik korxonalar ixtiyoriy profilaktik auditdan o‘tkazilsa, uning xulosasi soliq organlari tomonidan tan olinadi.

Barcha turdagi jarimalar miqdori o‘rtacha ikki barobar kamaytiriladi. “Tadbirkorning haqlilik prezumpsiyasi” va “Birinchi xato uchun – ogohlantirish” qoidalari joriy etiladi. Davlat xizmatlarining 50 foizi “sukut – rozilik” tamoyiliga o‘tkaziladi.

Bu yangiliklarning ortida juda muhim bir g‘oya bor: tadbirkorni doimiy nazoratda ushlash emas, uning qonuniy va samarali ishlashiga sharoit yaratish. Zero, xotirjamlik bor joyda tashabbus bo‘ladi. Tashabbus bor joyda esa yangi ish o‘rni, yangi mahsulot, yangi bozor va yangi daromad paydo bo‘ladi.

Xivadan boshlangan iqtisodiy ufq

Muloqotda turizm sohasiga ham katta e’tibor qaratildi. Yil boshidan beri mamlakatimizga 8 million xorijlik sayyoh kelgani, ularning qolish muddati 8 kungacha uzaygani qayd etildi.

Prezidentimiz turizm islohotlari aholi daromadida yanada ko‘proq sezilishi kerakligini ta’kidladi. Mehmonxona qurish, rekonstruksiya qilish va jihozlash uchun 50 million dollar resurs ajratiladi. Tadbirkorlarga 10 yil muddatga milliy valyutada 16 foizli kredit beriladi. Uch, to‘rt va besh yulduzli mehmonxona qurish uchun subsidiya berish muddati yana ikki yilga uzaytiriladi. Subsidiya uchun mehmonxona “yulduzi”ni tasdiqlashda xorijiy kompaniya xulosasini talab etish amaliyoti bekor qilinadi. Mehmonxonalar uchun yer va mulk solig‘ini 10 barobar kam stavkada to‘lash imtiyozi 2030-yilgacha uzaytiriladi.

Turoperatorlarning xorijlik turistlarga ko‘rsatgan xizmati eksportga tenglashtirilib, qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadi. Turistik avtobus, elektrobus va mikroavtobuslar olib kelishdagi bojxona imtiyozi yana bir yilga uzaytiriladi. Bunday transport vositalari uchun utilizatsiya yig‘imi ham undirilmaydi.

Bu choralar, ayniqsa, tarixiy Xiva uchun alohida ahamiyatga ega. Chunki bu yerda turizm – faqat mehmon qabul qilish emas. U mehmonxona, umumiy ovqatlanish, hunarmandchilik, transport, savdo, madaniy xizmatlar va yuzlab kasblarni birlashtiradigan katta iqtisodiy zanjirdir.

Prezidentimiz ochiq muloqot yakunida iqtisodiyotni yangi bosqichga olib chiqishning asosiy maqsadini aniq ifodaladi.

– Biz – 40 millionli xalqmiz. Odamlarimiz hayotini yanada yaxshilash uchun hozirgidan kam bo‘lmagan yuqori iqtisodiy o‘sishni saqlab qolishimiz zarur, – dedi davlatimiz rahbari.

Joriy yil yalpi ichki mahsulotni 180 milliard dollardan, eksportni 40 milliard dollardan oshirish maqsadi qo‘yilgan. Bu ulkan marralar esa, avvalo, tadbirkorlikning yangi sifat bosqichiga chiqishiga bog‘liq. Xivadagi ochiq muloqot shu ma’noda mamlakat iqtisodiyotining istiqboliga berilgan yo‘nalishlar xaritasi bo‘ldi.

Bugun O‘zbekistonda tadbirkor faqat biznes egasi emas. U yangi ish o‘rni yaratadi, investitsiya jalb etadi, texnologiya olib kiradi, eksport qiladi, milliy brendni dunyoga tanitadi. Shuning uchun uni qo‘llab-quvvatlash – aslida, mamlakatning iqtisodiy kelajagini qo‘llab-quvvatlashdir.

Prezidentimiz muloqot so‘ngida tadbirkorlarga qarata: “Hech qachon oldinga intilishdan, o‘sishdan, rivojlanishdan, yangilik qilishdan to‘xtamang!” deya murojaat etdi. Bu so‘zlarda bugungi tadbirkorlik siyosati mazmuni mujassam: davlat tadbirkorga yo‘l ochadi, qonun uni himoya qiladi, imkoniyatlar esa uning tashabbusi va mehnati bilan natijaga aylanadi.

Yangi O‘zbekistonning yangi iqtisodiy qudrati ham ana shu hamkorlik, ishonch va tashabbus uyg‘unligida shakllanadi.

Fidokorona mehnatlar e’tirofi

Prezidentimizning 13-avgustdagi farmoniga muvofiq, Tadbirkorlar kuni munosabati bilan soha vakillaridan bir guruhi turli davlat mukofotlari bilan taqdirlangan edi. Shuningdek, davlatimiz rahbarining ushbu sanada e’lon qilingan farmoyishiga ko‘ra, bir guruh yurtdoshlarimiz “Faol tadbirkor” ko‘krak nishoniga sazovor bo‘lgandi.

Shu yerda mazkur mukofotlarni topshirish marosimi o‘tkazildi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan shakllangan ezgu an’anaga muvofiq, har yili ilg‘or ishbilarmonlar Vatanimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlab kelinmoqda. Joriy yil ham nomzodlarni tanlashda ishlab chiqarish va eksportni ko‘paytirish, investitsiya jalb qilish, aholi bandligi va farovonligini ta’minlash, shuningdek, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishda aniq natija ko‘rsatayotgan tadbirkorlarga alohida e’tibor qaratildi.

Marosimda Prezidentimiz davlat mukofotlarini o‘z egalariga tantanali ravishda topshirdi.

Taqdirlanganlar tadbirkorlikni doimiy qo‘llab-quvvatlayotgani va ularning mehnatiga ko‘rsatilayotgan yuksak e’tibor uchun davlatimiz rahbariga minnatdorlik bildirdi.

Yo‘l – iqtisodiyot tayanchi

Prezident Shavkat Mirziyoyev Xiva shahrida tadbirkorlar bilan o‘tkazilgan ochiq muloqotdan so‘ng Urganch – Xiva yangi pullik avtomobil yo‘li bilan tanishdi.

Mamlakatimizda zamonaviy yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish, transport qatnovi tezligi va xavfsizligini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Joriy yil 5-avgust kuni imzolangan yangi tahrirdagi “Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi Qonunda pullik avtomobil yo‘llarini tashkil etishning huquqiy asoslari belgilandi. Bunda haydovchilar uchun muqobil bepul yo‘l mavjud bo‘lishi asosiy shart hisoblanadi.

Urganch aeroporti va Xiva shahri o‘rtasidagi yangi avtomobil yo‘li aholi va sayyohlar uchun xavfsiz, tezkor va qulay harakatlanish imkoniyatini yaratishga qaratilgan. Loyiha doirasida 35 kilometr avtomobil yo‘li, 1 ta yer osti tunneli, 8 ta yo‘lo‘tkazgich, 15 ta ko‘prik va 106 ta suv o‘tkazish inshooti barpo etildi. Mavjud yo‘l orqali Urganchdan Xivaga yetib borishga 45 – 50 daqiqa vaqt sarflansa, yangi to‘rt tasmali magistralda bu vaqt 15 – 17 daqiqagacha qisqaradi. Yo‘l sutkasiga 30 mingdan ortiq transport vositalarini o‘tkazish quvvatiga ega.

Eng muhimi, yo‘l bo‘yida xalqaro standartlarga mos servis obyektlari tashkil etiladi, transport oqimi va to‘lovlar sun’iy intellektga asoslangan raqamli tizimlar orqali boshqariladi.

Bu magistralning ahamiyati faqat yo‘lni qisqartirishda emas. U aeroportni qadimiy Xiva bilan yanada yaqinlashtiradi, sayyohlar oqimi uchun qulaylik yaratadi, xizmatlar bozorini kengaytiradi va hudud iqtisodiyoti uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Shu bilan Prezident Shavkat Mirziyoyevning Xorazm viloyatiga tashrifi yakunlandi.

Dilshod KARIMOV (“Xalq so‘zi”).

JAHON PARLAMENT DIPLOMATIYASINI ISLOH QILAYOTGAN TASHABBUS

2026-yil 24-iyul kuni BMT Bosh Assambleyasida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan “Ijtimoiy rivojlanishni jadallashtirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi rezolyutsiya bir ovozdan qabul qilindi. Shunisi e’tiborliki, mazkur hujjatga dunyoning barcha mintaqalaridan BMTga a’zo 61 ta davlatning hammuallif bo‘lishi xalqaro siyosat va diplomatiya nuqtayi nazaridan bir nechta muhim omillardan dalolat beruvchi faktdir. Xususan, bu holat Yangi O‘zbekistonning tashqi siyosiy nufuzi dunyo hamjamiyati tomonidan yuksak baholanayotganini, mamlakatimiz global kun tartibini belgilashda faqat kuzatuvchi emas, balki xalqaro trendlarni shakllantiruvchi faol ishtirokchiga aylanganini ko‘rsatadi.

Mulohaza

Dunyoning barcha qit’alaridan ushbu hujjatga hammuallif bo‘lish – o‘sha davlatlarning mazkur rezolyutsiya matni va undagi majburiyatlarni to‘liq bo‘lishishni anglatadi. Demak, shuncha davlat O‘zbekiston diplomatiyasi olib borgan ko‘p tomonlama muzokaralar natijasiga va ishlab chiqilgan hujjat samarasiga qat’iy ishonch bildirgan. Rezolyutsiya zamirida yotgan *“hech kimni ortda qoldirmaslik”* tamoyili, kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy himoyani kuchaytirish kabi maqsadlar dunyo mamlakatlarini yagona maslak atrofida birlashtira oladigan eng qulay va samarali platforma ekanini yana bir bor namoyish etdi.

Hujjatda alohida e’tibor xotin-qizlar va yoshlarning parlament faoliyatidagi ishtirokini oshirishga qaratilgan. Buning mohiyati va maqsadi qonunlarni qabul qilishga yondashuvni o‘zgartirishdan iborat: agar qonun chiqaruvchi organlar tarkibida ushbu muammolarni eng ko‘p his etadigan aholi guruhlari mavjud bo‘lmasa, ijtimoiy muammolarni samarali hal qilish imkoniyatlari pasayadi. Shu ma’noda, hujjatda to‘g‘ridan-to‘g‘ri vakillikka urg‘u berilib, ayollar va yosh deputatlar sonini oshirish uchun aniq mexanizmlarni (masalan, kvotalar yoki yoshlar parlamentlarini) joriy etishga chaqiriladi.



Parlament faoliyatiga yoshlarni jalb qilishdan ko‘zlangan maqsad esa raqamlashtirish, mehnat bozori va startaplar to‘g‘risidagi qonunlarni ushbu voqelikda yashaydigan yigit-qizlar tomonidan yozilishiga erishishdir. Qolaversa, yoshlar va ayollarning qonunchilik faoliyatida ishtiroki fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Masalaning yana bir tomoni – bu iqtisodiy foyda. Dunyo tajribasida ayollar qonunlarni qabul qilishda faol qatnashadigan mamlakatlarda qashshoqlik darajasi tezroq kamayib, ijtimoiy resurslarning samaraliroq taqsimlanishi isbotlangan. Shuningdek, bu o‘rinda demografik omillar ham bor: aholisining ko‘pchiligini yoshlar tashkil etadigan Markaziy Osiyo kabi mintaqalar uchun ularning parlamentdagi ovozini e’tiborsiz qoldirish ijtimoiy beqarorlik xavfini keltirib chiqarishi mumkin.

Bundan tashqari, bugun parlamentda tajriba orttirgan yosh rahbarlar ertaga siyosiy avlodlarning ravon va professional almashinuvini ta’minlashi bor haqiqat. Rezolyutsiyadagi bu urg‘u so‘nggi yillarda Oliy Majlisga saylovlarda qat’iy gender kvotalari joriy etilgan va Yoshlar parlament komissiyasi tashkil qilingan O‘zbekistonning o‘zidagi islohotlarini bevosita aks ettiradi. Xususan, so‘nggi parlament saylovlari natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston ayol deputatlar soni bo‘yicha Markaziy Osiyoda birinchi o‘rinni egallab, ayollar va yoshlar vakilligi bo‘yicha yuqori natijaga erishdi. Bu qabul qilingan rezolyutsiyada mustahkamlangan BMT standartlari va tavsiyalariga bevosita mos keladi.

Siyosiy partiyalar uchun majburiy gender kvotasining qonunchilik yo‘li bilan 40 foizga oshirilishi tufayli Oliy Majlis tarkibi tubdan o‘zgardi: Qonunchilik palatasida ayollar ulushi 38 foizni, Senatda esa 27 foizni tashkil etmoqda. Mahalliy Kengashlarda esa ayollar ulushi 32,5 foizga yetdi.

Ushbu ko‘rsatkichlar xalqaro e’tirofga sazovor bo‘lib, Parlamentlararo Ittifoqning “Parlamentdagi ayollar” global reytingida O‘zbekiston dunyoda 38-o‘ringa, Gender tenglik va boshqaruv indeksida esa 103-o‘rindan 52-o‘ringa ko‘tarildi.

Endilikda O‘zbekiston rasmiy yoshlar faolligidan haqiqiy qonunlarni qabul qilishda yosh kadrlarni tizimli jalb etishga o‘tdi: Parlamentlararo Ittifoqning rasmiy ma’lumotlariga ko‘ra, milliy parlament deputatlarining 42 foizi 45 yoshgacha bo‘lganlardan iborat. Quyi palata amaldagi tarkibining deyarli 40 foizi 30 yoshdan 45 yoshgacha bo‘lgan yosh mutaxassislar bo‘lib, ular axborot texnologiyalari, innovatsiyalar, iqtisodiyot va ijtimoiy himoya qo‘mitalarining asosini tashkil qiladi.

Yoshlar parlamentining to‘g‘ridan-to‘g‘ri integratsiyasi haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, Senat va Qonunchilik palatasi huzurida doimiy faoliyat yurituvchi bunday parlamentlarga asos solinishi mamlakatimizning bu yo‘nalishdagi noyob tajribasi bo‘ldi. Ushbu palatalar a’zolari O‘zbekistonning har bir ma’muriy tumaniga biriktirilgan bo‘lib, ular bevosita joylarda yoshlarning ijtimoiy so‘rovlarini to‘playdi.

Raqamli ko‘prik ham e’tibordan chetda qolmadi: O‘zbekiston parlamenti yosh fuqarolarga qonunchilik tashabbuslarini bevosita tegishli deputatlarga taqdim etish imkonini beruvchi IT-platformalarni kengaytirdi, bu BMTning yangi rezolyutsiyasida ham tavsiya sifatida qayd etilgan.

Shuningdek, o‘tgan yili Toshkent shahrida o‘tkazilgan Parlamentlararo Ittifoqning 150-assambleyasida Prezidentimiz tomonidan Samarqand shahrida Yosh parlament a’zolarining XII global konferensiyasini o‘tkazish taklifi ilgari surilgan edi. Qisqa vaqt ichida ushbu tashabbus xalqaro hamjamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, Parlamentlararo Ittifoqning 151-assambleyasi doirasida konferensiyani shu yilning 4 – 6-sentabr kunlari Samarqand shahrida o‘tkazish bo‘yicha namunaviy bitim imzolandi.

Ushbu xalqaro anjuman yaqinda qabul qilingan mazkur rezolyutsiyaning bevosita amaliy davomi va uni amalga oshirish mexanizmi hisoblanadi. Chunki BMT rezolyutsiyasi xalqaro konsensusni rasman qayd etdi: yoshlarni qonun ijodkorligiga keng jalb qilmasdan turib, ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlab bo‘lmasligi tan olindi. Samarqanddagi konferensiya butun dunyodan yosh deputatlar ushbu rezolyutsiyani milliy darajada amalga oshirish bo‘yicha aniq qadamlarni ishlab chiqish uchun to‘planadigan birinchi yirik global maydon bo‘ladi. Yosh yetakchilar tengdoshlarining iqtisodiy huquqlarini himoyalash va ularning bandligini ta’minlash, raqamli transformatsiya sharoitida yangi avlodning siyosiy huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish hamda ularni muhim qarorlar chiqarish jarayonlariga jalb etish kabi dolzarb masalalarni muhokama qiladi.

BMT rezolyutsiyasi Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda parlament a’zolarini faolroq jalb qilishga chaqiradi. Yoshlar konferensiyasi bilan bir vaqtda Samarqandda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda parlamentlararo hamkorlik bo‘yicha III global forum o‘tkazilishi ham ramziy ma’noga ega. Bu ham yosh qonun chiqaruvchilarning tajribasini BMTning 2030-yilgacha bo‘lgan strategik maqsadlari bilan bevosita bog‘lash imkonini beradi.

Malika QODIRXONOVA,
Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi a’zosi.

KELAJAKKA KIRITILAYOTGAN ENG MUHIM SARMOYA

Davlatimiz rahbarining Xorazmga tashrifi viloyatning buguni va kelajagiga yuksak e’tiborning navbatdagi yorqin ifodasi bo‘ldi. Ayniqsa, mazkur tashrif mamlakatimiz mustaqilligining 35 yillik shodiyonalari arafasida amalga oshirilgani xorazmliklar qalbiga o‘zgacha quvonch va iftixor bag‘ishladi.

Aks sado

Qadimiy tarix, noyob me’moriy obidalar va boy madaniy merosimiz viloyatni xalqaro turizmning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylantirish uchun ulkan imkoniyat yaratadi. Bu salohiyatni to‘liq ishga solish esa zamonaviy transport hamda logistika infratuzilmasini talab etadi.

Mamlakatimiz tarixida ilk marta Urganch xalqaro aeroportini Xiva temir yo‘l bekati bilan bog‘laydigan yangi temir yo‘l liniyasi ishga tushirilgani shu jihatdan muhim qadam bo‘ldi. Aeroport va temir yo‘l infratuzilmasining o‘zaro uyg‘unligi sayyohlar uchun qulaylik yaratish bilan birga hudud turizmining raqobatdoshligini oshiradi.

Shu bilan birga, tashrif davomida Xorazm ilg‘or kasbiy mahorat texnikumi hamda uning hududida tashkil etilgan Kasblar shaharchasi faoliyati bilan tanishilgani, yoshlar bilan bevosita muloqot qilingani ham katta ahamiyatga ega. Bugun mehnat bozori tez o‘zgarayotgan bir sharoitda yoshlarni shunchaki diplom bilan emas, zamonaviy kasb va amaliy ko‘nikmalar bilan qurollantirish nihoyatda muhim.

Kasblar shaharchasida yoshlarning mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblarni egallashi, zamonaviy uskunalar bilan ishlashni o‘rganishi uchun yaratilayotgan sharoitlar Xorazmning ertangi taraqqiyotiga xizmat qiladi. Davlatimiz rahbarining yoshlar bilan muloqoti esa mamlakatimizda yoshlar masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanini yana bir bor namoyon etdi.

Yoshlar bilan muloqotlar davomida bir narsaga amin bo‘lganman: ularga imkoniyat berilsa, bilimi, tashabbusi va mehnati bilan nafaqat o‘z hayotini, balki butun hudud taraqqiyotini o‘zgartirishga qodir. Shu bois



yoshlarning ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi, bandligini ta’minlash hamda tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni Xorazm kelajagiga kiritilayotgan eng muhim sarmoya deb bilaman.

Mazkur tashrifda Xorazm taraqqiyotining turli yo‘nalishlari yagona tizim sifatida namoyon bo‘ldi. Zamonaviy aeroport turizm va investitsiya uchun imkoniyat bo‘lsa, temir yo‘l – qulay transport infratuzilmasi, yangi ishlab chiqarishlar – iqtisodiy faollik va bandlik manbai, Kasblar shaharchasi esa malakali kadrlar tayyorlash maskani demakdir.

Xalqaro universitet va Konfutsiy instituti bilim hamda xalqaro hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar ochsa, xalqaro turistik shaharcha Xorazmning boy tarixiy salohiyatini iqtisodiy imkoniyatlarga aylantiradi. Muhimi, bularning barchasini yagona maqsad – inson uchun munosib hayot sharoitlarini yaratish, xalq farovonligini oshirish va hududning barqaror taraqqiyotini ta’minlash birlashtirib turadi.

Oldimizda yaratilayotgan imkoniyatlardan samarali foydalanish, boshlangan loyihalarni izchil davom ettirish, yoshlarga yanada keng imkoniyatlar yaratish, tadbirkorlik hamda investitsiya muhitini mustahkamlash, Xorazmning turizm salohiyatini dunyoga keng namoyon etishdek dolzarb vazifalar turibdi. Bu esa biz, xalq vakillaridan ham katta mas’uliyat va tashabbuskorlikni talab qiladi. Kelgusida davlatimiz rahbari topshiriqlari ijrosini ta’minlashga astoydil hissa qo‘shamiz.

Barno BERDIYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

OBOD MAHALLALAR – MAMLAKAT KO‘RKI

Mamlakatimizning barcha hududlarida mahallalarni obodonlashtirish, infratuzilmani yaxshilash va aholi uchun munosib yashash sharoitlarini yaratish borasida amalga oshirilayotgan ishlar parlament nazorati doirasida o‘rganib borilmoqda.

O‘rganish

Oliy Majlis Senatining Fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash masalalari qo‘mitasi raisi Odiljon Mamatkarimov, Namangan viloyati Kengashi deputatlari hamda mas’ullardan iborat ishchi guruh To‘raqo‘rg‘on tumanidagi Yangihayot hamda Ozod mahallalarida “Mahallada obodlik va mehr-saxovat oyligi” doirasida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlariga alohida e’tibor qaratdi.

Aniqlanishicha, Yangihayot mahallasida ichki yo‘llarni ta’mirlash va asfaltlash, ariqlarni tartibga keltirish, shuningdek, hududning sanitariya holatini yaxshilash bo‘yicha ishlar amalga oshirilgan.

Shuningdek, Ozod mahallasida obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish, ichki hamda piyodalar yo‘laklarini tartibga keltirish, infratuzilma obyektlarini ta’mirlash, aholi uchun qulay va xavfsiz muhit yaratish borasidagi ishlar holati o‘rganildi.

Ayni jarayonda ishchi guruh a’zolari temir yo‘l atrofidagi hududlarni tartibga keltirish, daraxtlarga shakl berish va ularni oqlash, ariqlarni tozalash hamda hududni chiqindilardan xoli qilish ishlarida bevosita ishtirok etdi.

Ta’kidlanganidek, mahallalarda obod va farovon muhitni shakllantirishda nafaqat infratuzilmani yaxshilash, balki hududlarni sarishta saqlash, ko‘kalamzorlashtirish va sanitariya holatini yanada yaxshilash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligi arafasida mahallalarni ko‘rkam maskanlarga aylantirish, aholi uchun munosib yashash sharoitlarini yaratishga qaratilgan ishlarni izchil davom ettirish juda muhim.

“Xalq so‘zi”.

Surxondaryo viloyatida o‘tkazilgan “O‘zbekiston – Xitoy” xalqaro forumida 6 mlrd. 253 mln. dollardan ortiq 63 ta investitsiya kelishuvi tuzildi.

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2026-yil 19-avgust

Senatorlar – hududlarda

IMKONIYAT – MEHNAT – DAROMAD

Aholi bilan muloqotni yanada kuchaytirish, mavjud muammolarni bevosita joyiga chiqqan holda o‘rganish, shuningdek, xotin-qizlarning murojaatlari bilan ishlash, bandligini ta’minlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollarni qo‘llab-quvvatlash, oilalarda sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni shakllantirish – bugungi kunning dolzarb vazifasi.

Ayni shu nuqtayi nazardan Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi raisi Orzigul Qozixonova Farg‘ona viloyatining Oltiariq tumani mahallalarida amalga oshirilayotgan ishlarni o‘rgandi.

Dastlab mahalliy Kengash deputatlari, tuman mutasaddilari bilan birga Ibn Sino, Yoshlik va Quvurboshi mahallalarida istiqomat qiluvchi ehtiyojmand oilalar holidan xabar olindi. Aholining ijtimoiy holatini, yashash sharoitini yaxshilash, bandligini ta’minlash va daromad manbalarini oshirish borasida bajarilgan ishlar bilan tanishildi.

Xususan, ayrim oilalarga uy-joy sharoitini yaxshilash uchun 18 mln. so‘mgacha moddiy yordam ko‘rsatilgani natijasida fuqarolar uchun doimiy ish o‘rni yaratilgan. Shuningdek, xotin-qizlarga ajratilgan 10 mln. so‘mlik kredit hisobiga chevarlik faoliyati yo‘lga qo‘yilgan hamda xonadonlarda issiqxona va tomorqadan samarali foydalanish orqali oila a’zolarining bandligi ta’minlangan.

Xonadonlarda imkoniyatlardan samarali foydalanish natijasida “imkoniyat – mehnat – daromad – oilaviy farovonlik” zanjiri shakllangan. Xotin-qizlarning bandligiga erishish, ularning tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va oilaviy daromadlarini oshirish borasidagi tajribani ommalashtirish muhimligi qayd etildi.

Shu bilan birga, Qapchug‘ay mahallasida fuqarolar murojaatlarini ko‘rib chiqish, yoshlar va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligini ta’minlash hamda ijtimoiy masalalarni hal etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar ham muhokama qilindi.

* * *

Oliy Majlis Senatining Fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash masalalari qo‘mitasi raisi o‘rinbosari Oral Ataniyazova Qoraqalpog‘iston Respublikasining Bo‘zatov tumanida bo‘lib, bu yerda amalga oshirilayotgan ishlar, aholi murojaatlari hamda ijtimoiy sohadagi loyihalarning samaradorligi bilan tanishdi.

Hokim va tuman Kengashi deputatlari bilan uchrashuv davomida hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi murojaatlari bilan ishlash, joylardagi mavjud muammolarni o‘rganish va ularni bartaraf etishda deputatlarning o‘rni yuzasidan fikrlashildi.

Shundan so‘ng “Bo‘zatov” sog‘lomlashtirish maskanida yaratilgan shart-sharoitlar, fuqarolarga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifati hamda davolash jarayoni o‘rganildi. Bu yerda davolanayotgan fuqarolarning fikri va takliflari tinglandi.

O‘z navbatida, aholi salomatligini tiklash borasida amalga oshirilayotgan ishlar tahlilga tortilib, sanatoriyning mavjud imkoniyatlaridan samarali foydalanish, tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash va aholi uchun shart-sharoitlarni yanada qulaylashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

* * *

Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi a’zosi Maryam Niyazova Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashi deputatlari bilan birgalikda hududda olib borilayotgan ishlar, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari, tadbirkorlik subyektlari faoliyati hamda sport infratuzilmalari holati bilan tanishdi.

Xususan, Mundiyon mahallasida xotin-qizlar bilan ishlash samaradorligini yanada oshirish, har bir murojaatni o‘z vaqtida o‘rganish va mavjud muammolarni mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda manzilli hal etish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar ko‘zdan kechirildi.

Shuningdek, senator tumanda faoliyat yuritayotgan “Turon” xususiy korxonasida yaratilgan ish o‘rinlari va mehnat sharoitlari bilan tanishib, korxona faoliyatini yanada rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar tahlilga tortildi.

Muloqot davomida korxona faoliyatida uchrayotgan masalalar, jumladan, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish hajmi va mahsulotlar sifatini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish istiqbollari yuzasidan mas’ullar bilan fikr almashildi.

Bundan tashqari, ishchi guruh Kadan mahallasida barpo etilgan sport maydonchalarining holatini ham ko‘zdan kechirdi. O‘rganish jarayonida sport maydonchalarida aholi, ayniqsa, yoshlarning sport bilan shug‘ullanishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar, jihozlarning texnik holati, ulardan xavfsiz foydalanish imkoniyatlari, hududning obodonligi va tozaligiga e’tibor berildi.

“Xalq so‘zi”.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

BARQAROR TARAQQIYOT VA FAROVON HAYOTIMIZNING HUQUQIY POYDEVORI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo‘lib o‘tdi. Unda mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotiga daxldor masalalar, jumladan, intellektual mulk sohasida ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari sifatini yanada oshirishga, fuqarolarni yashash manzili va turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish tartibini soddalashtirishga, radioaktiv chiqindilar bo‘yicha munosabatlarni tartibga solishga, sanksiya va jarimalarni qo‘llashda qonun ustuvorligini ta’minlashga doir qator qonun loyihalari, shuningdek, parlament nazorati faoliyatiga oid masala muhokama qilindi.

Intellektual mulkdan samarali foydalanishning huquqiy asoslari takomillashtiriladi

Majlisda dastlab intellektual mulk obyektlarining fuqarolik muomalasidagi aylanmasini oshirish va patent vakillarining huquqlarini kengaytirishga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi o‘qishda ko‘rib chiqildi.

Ushbu hujjat intellektual mulk obyektlarining fuqarolik muomalasidagi ahamiyatini yanada oshirish, ulardan samarali foydalanishning huquqiy asoslarini takomillashtirish hamda patent vakillarining huquq va vakolatlarini kengaytirishga qaratilgan. Qonun loyihasi bilan O‘zbekiston Respublikasining 7 ta qonuni hamda 4 ta kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmoqda. Jumladan, intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan mulkiy huquqlar garovi bilan bog‘liq munosabatlar aniq tartibga solinib, bunday huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishning asoslari mustahkamlanmoqda.

Shuningdek, patent vakillarining intellektual mulk obyektlariga oid shartnomalarni rasmiylashtirish va vakillik qilish bo‘yicha vakolatlari kengaytirilmoqda. Ushbu normalarning qonunchilikda mustahkamlanishi intellektual mulk obyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonini yanada tezlashtirish, ortiqcha ma’muriy tartib-taomillarni qisqartirishga xizmat qiladi.

Intellektual mulkka bo‘lgan mulkiy huquqlardan garov sifatida foydalanish imkoniyatining kengayishi esa ixtiro, tovar belgisi va boshqa intellektual aktiv egalariga ularning iqtisodiy qiymatidan amalda foydalanish, moliyaviy resurslarni jalb etish hamda o‘z faoliyatini rivojlantirish uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratadi.

Behzod TO‘XTAMURODOV,
Innovatsion rivojlanish va axborot texnologiyalari masalalari qo‘mitasi a’zosi:



– Qonun loyihasini ikkinchi o‘qishga tayyorlash jarayonida qo‘mitamiz tomonidan uning har bir moddasi atroflicha ko‘rib chiqilib, hujjatning mazmun-mohiyatini aniq ifodalash, normalarning o‘zaro muvofiqligini ta’minlash hamda qonunchilik texnikasi talablariga moslashtirish maqsadida tahririy va texnik to‘ldirishlar amalga oshirildi. Uning qabul qilinishi intellektual mulk obyektlarining huquqiy muhofazasini ta’minlash bilan birga, ularni iqtisodiy aktiv sifatida fuqarolik muomalasiga keng jalb etish, bozor qiymatini shakllantirish hamda samarali tijoratlashtirish mexanizmlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Muhokamalardan so‘ng qonun loyihasi uchinchi o‘qishda qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Fuqarolarni yashash manzili va turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi osonlashadi

Bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida ishlab chiqilgan – fuqarolarni yashash manzili va turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish tartibini soddalashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi o‘qishda ko‘rib chiqildi.

Ushbu hujjat mazkur jarayonlarni yanada soddalashtirish orqali fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini kengroq ta’minlashga qaratilgan. Unda uchta muhim yangilik nazarda tutilmoqda. Xususan, oila a’zolari hamda yaqin qarindoshlari turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazishda uy-joy maydonining ijtimoiy normasini qo‘llash bilan bog‘liq cheklovlar bekor qilinmoqda.

Ya’ni er-xotin, ota-ona va farzandlar, buva-buvi hamda nevaralar, shuningdek, aka-uka va opa-singillar bir-birining uy-joyiga ro‘yxatdan o‘tayotganda xonadon maydoni belgilangan me’yordan kam bo‘lsa ham, bu holat ro‘yxatdan o‘tishga to‘sqinlik qilmasligi nazarda tutilyapti. Bu esa oila a’zolari hamda yaqin qarindoshlarni bir manzilda ro‘yxatdan o‘tkazishni yengillashtiradi. Loyihada talabalar turarjoylarida istiqomat qilayotgan o‘quvchilar va talabalarga nisbatan alohida huquqiy mexanizm joriy etilib, ularni ro‘yxatdan o‘tkazishda uy-joy maydonining ijtimoiy normasi qo‘llanilmasligi belgilanmoqda. Bu oliy ta’lim muassasalarida talabalarni ro‘yxatdan o‘tkazish bilan bog‘liq mavjud amaliy muammolarni bartaraf etadi.

Bugungi kunda ipoteka krediti yoki subsidiya asosida uy sotib olgan ko‘plab fuqarolar o‘z uyida ro‘yxatdan o‘tishda qiyinchilikka duch kelmoqda. Bu esa ularga farzandlarini maktab yoki bog‘chaga joylashtirish, poliklinikaga biriktirish, pensiya va boshqa ijtimoiy xizmatlardan foydalanishda muammo tug‘diryapti.

Qonun loyihasiga ko‘ra, endilikda taqiq yoki xatlab qo‘yilgan turarjoyda yashash manzili va turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish uchun garovga oluvchining, taqiq va xatlab qo‘yishga yoki uni olib tashlashga vakolatli organning roziligini olish talab etilmaydi. Bu norma, avvalo, uy-joy mulkdori hamda uning oila a’zolarining o‘z uyida qonuniy ro‘yxatdan o‘tishiga imkoniyat yaratadi.

Ayni vaqtda garovga oluvchi va davlat organlarining qonuniy manfaatlarini ta’minlash maqsadida ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan shaxsning oldindan yozma roziligi instituti joriy etilmoqda. Ushbu mexanizmga ko‘ra, garovga oluvchi yoki taqiq (xatlov) qo‘ygan vakolatli organning murojaatiga asosan uning ro‘yxatdan o‘tkazilganligi bekor qilinishi mumkin bo‘ladi. Mazkur yechim, bir tomondan, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari, ikkinchi tomondan, kreditorlarning huquq va qonuniy manfaatlari yetarli darajada himoyalanishini ta’minlaydi.

Shuhrat YOQUBOV,
Fan, ta’lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo‘mitasi a’zosi:



– Ushbu hujjatni ikkinchi o‘qishga tayyorlash davomida uning konsepsiyasini o‘zgartirmagan holda yanada takomillashtirdik. Masalan, ta’lim oluvchilar doirasi kengaytirildi. Endi undan nafaqat oliygohlar talabalari, balki o‘rta maxsus va kasbiy ta’lim tashkilotlarining o‘quvchilari ham foydalanishi mumkin. Bu norma faqat talabalar turarjoylariga emas, ijara xonadonlariga ham tatbiq etiladi.

Hujjatda taqiq yoki xatlab qo‘yilgan turarjoylarga ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi ham aniq belgilanib, bu norma huquqiy jihatdan yanada aniqlashtirildi. Jumladan, endi nafaqat garovga oluvchining, balki taqiq yoki xatlab qo‘yishga yoinki ularni olib tashlashga vakolatli organning roziligisiz ham ro‘yxatdan o‘tkazishga ruxsat berilishi aniq belgilab qo‘yildi.

Majlisda qonun loyihasi ikkinchi o‘qishda qabul qilindi.

Guliston va Shirin shaharlari hududi kengaymoqda

Deputatlar “Sirdaryo viloyatining Guliston, Shirin, Yangiyer shaharlari, Guliston, Boyovut, Mirzaobod, Oqoltin, Sardoba, Sayxunobod, Sirdaryo, Xovos tumanlari chegaralarini o‘zgartirish to‘g‘risida”gi palata qarori loyihasini ko‘rib chiqdi.

Taklif etilayotgan chegara o‘zgartirishlariga muvofiq, Guliston tumanidan 527,23 gektar va Boyovut tumanidan 582,0 gektar yer maydonini Guliston shahri tarkibiga hamda Boyovut tumanidan 638,77 gektar yerni Shirin shahri tarkibiga o‘tkazish nazarda tutilmoqda.

Guliston hamda Shirin shaharlari viloyatdagi aholi eng zich joylashgan hudud hisoblanib, chegaralarning kengayishi shaharda aholi zichligini kamaytirishga, transport qatnovini yaxshilashga, hududda yirik loyihalar uchun zamin yaratib, xorijiy va mahalliy investitsiyalar oqimini ko‘paytiradi.

Shuningdek, hududda yangi sanoat zonalari, texnoparklar hamda yuqori texnologiyali korxonalar tashkil etishga, qurilish, xizmat ko‘rsatish va sanoat sohalarida o‘n minglab yangi ish o‘rinlari ochilib, aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilashga sharoit yaratadi.

Majlisda chegaralarga o‘zgarishlar kiritish masalasi tegishli mahalla fuqarolar yig‘inlari, xalq deputatlari tuman, shahar Kengashlari hamda viloyat Kengashida muhokama qilinib, chegaralarning kartografik chizmasi va chegaralar chizig‘ining tasnifi ma’qullangani qayd etildi.

Ushbu masala yuzasidan qaror loyihasi deputatlar tomonidan ma’qullandi.

Radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo‘lish qonunga ko‘ra tartibga solinadi

Deputatlar tomonidan ko‘rib chiqilgan navbatdagi hujjati “Radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo‘lish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi bo‘ldi.

Ta’kidlanganidek, mamlakatimizda atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish, sanoat, tibbiyot, fan va boshqa tarmoqlar faoliyati natijasida hosil bo‘ladigan radioaktiv chiqindilarni tashish, saqlash, qayta ishlash va ko‘mish jarayonlari yagona huquqiy hujjat asosida tartibga solishni taqozo etmoqda.

Radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo‘lishning barcha bosqichlarida xavfsizlikni ta’minlash, aholi hayoti va sog‘lig‘ini, mol-mulkini hamda atrof-muhitni ularning zararli ta’siridan himoya qilishning aniq mexanizmlari ushbu loyihada belgilanmoqda.

Yana bir muhim yangilik – mamlakat hududidagi barcha radioaktiv chiqindilar majburiy davlat hisobidan va nazoratidan o‘tkaziladi. Radioaktiv chiqindilar davlat reestri yuritilib, ularning miqdori, joylashgan joyi hamda harakati to‘g‘risidagi ma’lumotlar tizimlashtiriladi. Bu esa radioaktiv chiqindilarning yo‘qolishi, ruxsatsiz ishlatilishi yoki talon-toroj qilinishi kabi xavflarning oldini olishga yordam beradi.

Shuningdek, radioaktiv chiqindilar saqlanadigan hamda ko‘miladigan obyektlarni joylashtirish, loyihalash, qurish, ekspluatatsiya hamda foydalanishdan chiqarishga nisbatan qat’iy xavfsizlik talablari belgilanmoqda. Hujjatda radioaktiv chiqindilarni hosil qilgan yoki ularning egasi bo‘lgan subyekt tomonidan ular bilan xavfsiz muomalaga kirishish xarajatlarining qoplanishi mustahkamlanmoqda.

Muhokama davomida deputatlar qonun loyihasining ahamiyati haqida to‘xtalib, undagi ayrim normalar bo‘yicha aniqlashtiruvchi savollar berdi. Xususan, O‘zLiDeP fraksiyasi a’zosi Zafar Xudoyberdiyev loyihadagi “egasiz radioaktiv chiqindilar” tushunchasi bilan “tarkibida yadroviy materiallar bo‘lgan radioaktiv chiqindilar faqat davlat mulki bo‘lishi” haqidagi normalar o‘rtasidagi huquqiy mutanosiblik masalasini ko‘tardi.

Qonun tashabbuskorlari “egasiz radioaktiv chiqindilar” egasi bo‘lmagan yoki egasi noma’lum radioaktiv chiqindilarga taalluqli ekanini, bunday chiqindilar aniqlangan taqdirda, ular bilan bog‘liq ishlar Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishini va belgilangan tartibda davlat mulkiga aylantirilishini bildirdi. Shu bilan birga, mazkur normalarning o‘zaro muvofiqligi deputat taklifi asosida qonun loyihasini ikkinchi o‘qishga tayyorlash jarayonida yana bir bor ko‘rib chiqilib, zarur aniqliklar kiritilishi aytildi.

Bekmirza ESHMURZAYEV,
Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo‘mitasi a’zosi:



– Mazkur qonun loyihasida radioaktiv chiqindilarni qayta ishlash, tashish, saqlash, zararsizlantirish va ko‘mish ishlarini amalga oshiruvchi milliy operator faoliyatining huquqiy asoslari ham belgilanmoqda. Uning qabul qilinishi esa radioaktiv chiqindilar bilan muomalada bo‘lish yo‘nalishida davlat nazoratini takomillashtirish, xavfsizlikning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish hamda aholi va atrof-muhit muhofazasini kuchaytirish imkonini beradi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o‘qishda qabul qilindi.

Moliyaviy jarimalarni qo‘llashda adolat va shaffoflik muhim

Majlisda moliyaviy jarimalarni qo‘llash tartibini belgilash, ular ustidan shikoyat qilish hamda noqonuniy undirilgan mablag‘larni qaytarishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o‘qishda muhokama etildi.

Ushbu hujjat moliyaviy jarimalarni qo‘llashning yagona, aniq hamda shaffof tartibini belgilash, moliyaviy sanksiyalarni ixtiyoriy va yengillashtirilgan tartibda ijro etish mexanizmlarini joriy qilishga qaratilgan.

Qonun loyihasida moliyaviy jarima qo‘llash to‘g‘risidagi qarorlar ustidan yuqori turuvchi organga yoki sudga shikoyat yo‘llash, qonunga xilof ravishda undirilgan mablag‘larni o‘z vaqtida hamda to‘liq qaytarish orqali tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish nazarda tutilmoqda. Loyihada sud nazoratining samaradorligini oshirish hamda moliyaviy javobgarlikni qo‘llash tartibini yanada yengillashtirish ham belgilanyapti. Bu esa tadbirkorlarni asossiz yoki ortiqcha moliyaviy jazolardan asrashga xizmat qiladi.

Hujjat bilan moliyaviy jarimadan ozod etish yoki uni olti oy davomida bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati ham yaratilmoqda. Qolaversa, sud tomonidan bekor qilingan yoki haqiqiy emas deb topilgan jarima summasini qisqa muddatlarda qaytarish, kechiktirilgan taqdirda esa foiz to‘lash tartibini joriy etish nazarda tutilyapti.

Munozaralar davomida O‘zLiDeP fraksiyasi a’zosi Saydullo Azimov qonun loyihasining ahamiyati hamda zarurati yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirib, ushbu tartiblar tadbirkorlarga yengillik yaratish, ularni asossiz jarimalardan himoyalash va huquqlari buzilganda yetkazilgan moliyaviy zararni tezroq qoplashga xizmat qilishini qayd etdi. Shu bilan birga, deputat loyihadagi ayrim normalar bo‘yicha ham qonun tashabbuskorlariga aniqlashtiruvchi savollar berdi. Ular esa ko‘tarilgan masalalar yuzasidan batafsil tushuntirishlar berishdi.

Nuriddin JABBOROV,
Byudjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasi a’zosi:



– Mamlakatimizda jismoniy hamda yuridik shaxslarning huquqiy kafolatlarini mustahkamlash, davlat organlari qarorlari ustidan shikoyat qilish huquqini amaliy jihatdan ta’minlash borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu hujjat esa huquqbuzarliklarni ixtiyoriy ravishda bartaraf etish, qo‘llanilgan moliyaviy majburiyatlar o‘z vaqtida to‘lanishini rag‘batlantirishga yo‘l ochadi, davlat organlari va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi munosabatlarni soddalashtiradi.

Muhokamadan so‘ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o‘qishda qabul qilindi.

Parlament so‘roviga javob ko‘rib chiqildi

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktori S. Murodovning “Davlat mulkini xususiylashtirish borasida olib borilayotgan ishlar to‘g‘risida”gi parlament so‘roviga javobi ham ko‘rib chiqildi.

Taqdim etilgan javobga ko‘ra, so‘nggi yillarda mamlakatimizda davlat aktivlarini xususiylashtirish ko‘lami yildan-yilga ortib, bu borada zamonaviy va xalqaro amaliyotga mos mexanizmlar joriy qilinishi natijasida davlat ishtirokidagi korxonalarni bosqichma-bosqich qisqartirish jarayonlari jadallashtirilmoqda.

So‘rovda davlat mulkini boshqarish hamda xususiylashtirishga oid Prezident farmon va qarorlarining ijrosi, xususiylashtirish dasturlarining bajarilishi hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishda tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ko‘tarilgan savollarga tegishli javoblar berilgan. Unda keltirilishicha, davlat aktivlari hamda yer uchastkalarini sotish va tushumni ta’minlash bo‘yicha belgilangan vazifalarning aksariyati bajarilgan, bajarilmay qolgan qismi yuzasidan esa batafsil izohlar parlament so‘roviga javobda keltirilgan. Shuningdek, 2025-yilga belgilangan 7 ta maqsadli indikatordan 6 tasining uddasidan chiqilgani, biroq davlat aktivlarini realizatsiya qilishdan tushgan mablag‘larni respublika byudjetiga o‘tkazish ko‘rsatkichi to‘liq amalga oshmagani hamda uning to‘liq bajarilmaslik sabablari batafsil bayon etilgan.

Javobda agentlik tomonidan tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash borasida davlat aktivlari va yer uchastkalarini sotish hamda davlat ko‘chmas mulklarini ijaraga berishdagi imtiyozlar ham alohida keltirilgan. Xususan, davlat ko‘chmas mulk obyektlari va ulush (aksiya)larni sotish, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini realizatsiya qilish, davlat ko‘chmas mulk obyektlarini ijaraga berish orqali imtiyozlar ko‘zda tutilgan.

Majlisda deputatlar davlat aktivlarini xususiylashtirish jarayonlarini yanada jadallashtirish, savdoga chiqarilayotgan obyektlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, ularni realizatsiya qilishda ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratdi. Shu bilan birga, bo‘sh turgan davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish, tadbirkorlar uchun yer uchastkalari va ko‘chmas mulk obyektlari realizatsiyasi bo‘yicha mexanizmlarni yanada soddalashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar bildirildi.

Majlisda parlament so‘roviga javobda ko‘tarilgan masalalar yuzasidan atroflicha ma’lumotlar taqdim etilgani ta’kidlanib, parlament so‘roviga javob ma’lumot uchun qabul qilindi.

“Xalq so‘zi”.

Shu yil 1-sentabrdan “brutto-shartnoma” asosida faoliyat yuritayotgan shahar avtobuslarida yo‘l haqini to‘lash tartibi o‘zgaradi. Yangi me’yorga ko‘ra, yo‘lovchi avtobusga chiqishi bilan yo‘lkirani to‘lashi shart.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan.Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-842. 19 427 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan.Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir A. Aliqulov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni – 23.55 Topshirildi – 00.15 1 2 3 4 5 6